

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK:658.1

MIRZAXALIKOV BOBIR BAXTIYOROVICH

**PENSIYA FONDI MABLAG'LARIDAN INVESTITSION
MAQSADLARDA FOYDALANISH**

Mutaxassislik: 5A231301-«Pensiya ishi»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.n, dotsent G'. Ibragimov

TOSHKENT-2014

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «G'aznachilik ishi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:

i.f.n, dotsent G'.Ibragimov

«G'aznachilik ishi» kafedrasi mudiri:

i.f.n, dotsent A.Botirov

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

M U N D A R I J A		Betlar
KIRISH		3
I BOB.	IJTIMOIIY KAFOLATLARDA PENSIYA TA'MINOTINING O'RNI VA INVESTITSION FAOLIYATNING NAZARIY HUQUQIY ASOSLARI	11
1.	Pensiya jamg'armasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va asosiy vazifalari	11
2.	Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasini tashkil etilishi	16
3.	Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiyalarni jalb qilinishi	22
	I BOB bo'yicha xulosa	35
II BOB.	BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI VA JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA FONDI INVESTITSION FAOLIYATINING TAHLILI	37
1.	O'zbekistonda Respublikasida investitsion faoliyatning hozirgi holati	37
2.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini boshqarish	41
3.	Moliyaviy investitsiyalar iqtisodiy samaradorligi natijalarining tahlili	48
	II BOB bo'yicha xulosa	57
III BOB.	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA PENSIYA FONDLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	59
1.	Pensiya fondlari faoliyatining xorijiy tajribalari	59
2.	O'zbekiston Respublikasida pensiya fondi mablag'larini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llari	67
3.	O'zbekiston Respublikasida pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish istiqbollari	73
	III BOB bo'yicha xulosa	80
XULOSA		82
ADABIYOTLAR RO'YXATI		85

KIRISH

Tadqiqot mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakatimizda davlatning budget siyosati, budgetdan tashqari fondlar, davlat maqsadli jamg'armalarning daromad bazasini kengaytirish aholi farovonligini ta'minlash, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratilgan. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatda xarajatlarning maqsadli sarflanishi, aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy ta'minlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish fuqarolik jamiyati sari dadil odimlab borayotgan O'zbekiston uchun nihoyatda muhim masalalardir. Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan muhim tadbirlar davlat maqsadli jamg'armalari, budgetdan tashqari fondlar va sug'urta tizimi orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoyalash vazifalarini bajarishning ahamiyati to'g'risida doimo to'xtaladilar, "...O'tgan yili ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. 2011 yilda respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi"¹.

Insonga munosib turmush sharoitini yaratib berilishi ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadidir. Budgetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari orqali yo'naltirilgan xarajatlar faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Davlatning budget-soliq siyosati, budgetdan tashqari fondlar va maqsadli jamg'armalarning daromad bazasini kengaytirish masalalari aholi farovonligini ta'minlash, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratilgan. Pensiya fondi mablag'larini samarali boshqarishning hozirgi holatini tadqiq qilish dolzarb vazifalar qatoriga kiritiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiyaning ijtimoiy funktsiyasi

¹Karimov I.A. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. -T.: "O'zbekiston". 2012. -B.36.

yanada takomillashtirildi, fuqarolarning pensiya miqdori yuqori ish haqi olmagan fuqarolarga yashash sharoiti ta'minlandi. "...2013 yilda xalqimizning real daromadlari 16 foizga oshdi, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda pensiyalarning o'rtacha miqdori o'rtacha ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich Rossiyada 25,7 foizdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa 23-28 foizdan iboratdir. Joriy 2014 yilda mamlakatimizda bu ko'rsatkich 41 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda»¹.

Aholining ijtimoiy himoyasini takomillashtirishda Pensiya jamg'armasi katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda mazkur jamg'arma o'z faoliyatini yaxshi yuritmoqda. Hozirgi kunda milliy pensiya tizimini moliyaviy mustahkamlash uchun zahira fondi mavjudligi bilan izohlanadi. Zahira fondi kamida uch oylik pensiya summasi hamda ijtimoiy nafaqa to'lovlari miqdorining ta'minlashga yetadi. Hozirda milliy pensiya tizimida o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar mavjud va ular ijobiy hal qilinishi kerak.

Birinchidan, bu muammolar sirasiga pensiya bilan bog'liq imtiyozlarni kiritish mumkin. Ishlovchilar uchun imtiyozli pensiya tayinlash hamda alohida ishchilar uchun nafaqaga chiqish yoshini pasaytirish boshqa pensiya to'lovining oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, pensiya tizimini barqaror holatda ishlab turishi uchun uzoq muddatli va qisqa muddatli tahlillar o'tkazish va tegishli hisobotlar ishlab chiqilishi lozim. Bu hisobotlarda demografik holat va iqtisodiyotdagi o'zgarishlar hisobga olinishi kerak. Afsuski, pensiya tizimida maxsus yaratilgan model mavjudligiga qaramasdan, bunday prognoz-hisobotlar doim ham o'tkazilmaydi va qilinayotgan ishlarning oxiri qanday tugashi ham hisobga olinmaydi. Bu esa moliyaviy qiyinchiliklarni tug'diradi va Jamg'armaning daromadlaridan xarajatlari ko'payib ketishiga olib kelishi mumkin.

¹Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2014 yil. 18 yanvar.

Uchinichidan, pensiya tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini yanada ko'tarish kerak. Pensiyalarni hisoblashda kompyuter texnologiyasidan foydalanish yetarli yo'lga qo'yilgan. To'lov hujjatlarin kiritish, statistik ma'lumotlarni kiritish va taxlil qilish kerak. Bu xatoliklar pensionerlarning fuqarolik huquqini cheklab qo'yadi yoki Pensiya jamg'armasidagi vositalarning noto'g'ri ishlatilishiga olib keladi. Shu kabi muammolarni bartaraf etish orqali respublika pensiya tizimini takomillashtirishga erishish mumkin.

To'rtinchidan, O'zbekistonda pensiya tizimini rivojlantirish va takomillashtirishda dolzarb vazifalarni hal etish zarur:

- pensiya yoshidagi aholining daromadlarini samarali va adolatli tarzda saqlanishini ta'minlash,
- to'lanadigan pensiya badallari va beriladigan pensiya miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasini oshirish;
- inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda, uzoq muddatli mablag'lardan investitsion yo'nalishlarida foydalanishni rivojlantirish;
- investitsion faoliyat orqali fuqarolarni daromadlarini yanada oshirish.

Shu munosabat bilan tadqiqot ishimizga «Pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish» mavzusi tanlandi.

Tadqiqot ishining ob'ekti. O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda pensiya tizimi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanishni o'rganish tadqiqot ishining ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqot ishining predmeti. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini boshqarish masalalari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadi – O'zbekistonda pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanishni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni taqdim etishdan iborat. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur bo'ladi:

- O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta‘minotining tashkiliy-nazariy va me‘yoriy-huquqiy asoslarini ko‘rsatish;
- Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o‘rganish;
- “pensiya ta‘minoti”, “pensiya fondi” “investitsiya”, “investitsion faoliyat”, “investitsiya sub’ektlari”, “investitsion institut”, “qimmatli qog‘ozlar bozori”, “portfel investitsiyalar”, “moliyaviy investitsiyalar», “moliyaviy risk” kategoriyalarini o‘rganish;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlarini tahlil qilish;
- fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini o‘rganish;
- pensiya fondini mablag‘laridan investitsion faoliyatda foydalanishning xorijiy tajribalarini o‘rganish;
- O‘zbekiston Respublikasida pensiya fondi va jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti mablag‘laridan moliyaviy investitsiyalar sifatida foydalanish istiqbollari ko‘rsatish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Respublikamizda davlat va jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi joriy etilgan, zarur me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. Mazkur tadqiqotda pensiya tizimini o‘rganib, tahlil qilib chiqishga va uning investitsion faoliyatini oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflarni asoslashga harakat qilinadi. Buning uchun esa pensiya fondi mablag‘larini investitsiya yo‘nalishida joylashtirish maqsadlarda foydalanishning tahlili ko‘rib chiqish talab etiladi. Mazkur ilmiy tadqiqotda respublikamizdagi Pensiya jamg‘armasi, Jamg‘arib boriladigan pensiya fondini mablag‘laridan investitsion maqsadlarda foydalanishning amaldagi holati va mavjud muammolar, xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini investitsion faolligini oshirishiga qaratilgan xulosa va takliflarni ishlab chiqish o‘z oldimizga maqsad qilib olindi. Pensiya fondi mablag‘laridan investitsion maqsadlarida foydalanish va ularni samarali boshqarishda qator dolzarb muammolarga yechim topish talab etiladi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar hamda amaliy tavsiyalar kelgusida mamlakatimizda pensiya fondi mablag'larining investitsion boshqarishni takomillashtirishga olib kelishi mumkin. Tadqiqotning asosiy masalalari:

- ✓ pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanishning xorijiy tajribalar asosida yoritish;
- ✓ iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini modernizatsiyalashga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqish;
- ✓ pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish jarayonini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosalar tayyorlash;
- ✓ O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsion strategiyasi bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy sohani moliyalashtirish, aholini ijtimoiy himoyalash, respublikasida pensiya tizimini shakllantirish, fuqarolarning daromadlarini oshirish yo'llari aniqlangan. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi vazifalari, pensiya va ijtimoiy ta'minot masalalari, jamg'arma mablag'laridan investitsion yo'nalishlarida foydalanishini rivojlantirish jarayonlarini jadallashtirish borasidagi ayrim masalalarni tadqiq etilgan. Mazkur muammolarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning mualliflari qatorida M. Abdullaev, U.Abdullaev, M.Axmedov, X.Akramov, A.Vaxabov, A.Vahobov, D.Vahobov, X.Imomov, Z.Karimova, T.Malikov, M. Mirzamahmudov, U.Nadirxanov, D. G'ozibekov, N.Haydarov, A. O'lmasov, G.Qosimova, A.Hayitov¹ kabilarni ko'rsatish mumkin.

¹Abdullaev U. Pul taklifini tartiblashtirishning nazariy va amaliy jihatlar. // Moliya. -Toshkent. 2014. -№1. – B.60-65., Axmedov M. Iqtisodiyotda “uzun” moliyaviy resurslar salmog'ini oshirishda nodavlat pensiya jamg'armasining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2012. №2. – B.132., Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. 8-12b., Akramov X.M. O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta'siri: i.f.n... dis. avtoref. -T.: BMA. 2010. 25 b., Vohobov A.V., Malikov T.S Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008. -316 b. , Vaxabov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar.

Aholini ijtimoiy himoyalashda pensiya fondining mablag'larini samarali boshqarish, pensiya ta'minotining tashkiliy-huquqiy masalalari, pensiya tizimini takomillashtirish, pensiya fondi daromadlarini ko'paytirish bilan bog'liq bo'lgan masalalari I.Akperov, L.Androsova, Karchevskiy V.Karchevskiy, S.Kadomtseva, E. Smirnova, A.Neshchitoy, L.Okuneva, V.Polyak¹ va boshqalarning darslik, monografiya, o'quv qo'llanma, ilmiy maqola va boshqa ilmiy asarlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari, yetuk iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini himoyalash vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini boshqarish departamenti hisobotlari ilmiy izlanishning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqot ishida taqqoslash, guruhlash, tahlil, monografik kuzatish uslublaridan foydalanildi.

Monografiya. T.: Sharq. 2003. -320 b., Vaxabov D.R. Ijtimoiy sug'urtaning fundamental asoslari, nazariyalari va ijtimoiy risklar xususida ba'zi mulohazalar // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent. 2010.- № 6. 16-18b., Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent. 2010.- № 4. 21-27b., Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU. 2010. 215b., Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. -556 b., Malikov T.S., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2010. 660b., Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013.112 b., NadirxanovU. Inostrannye investitsii i regionalnoe razvitie respubliki. // Rino, dengi i kredit. -Toshkent. 2013. №1. –B.42-44., Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2009. 212 b., Qosimova G. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. -487 b., Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion foliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2003. 28b., G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. – Monografiya. -T.: " Moliya". 2003. -279 b., O'lmasov A. Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Sharq». 2006. -480 b., Xayitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Adolat". 2009. -172 b.

¹ Акперов И. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: "КНОРУС". 2010. - 640 с., Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: "Вузовский учебник". 2011. -224 с., Кадомцева С. Социальная политика и население. // Экономист. 2006. №7. 56-58 с., Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с., Поляк Г.Б. Бюджетная система России. Учебник.- М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2011. -703 с., Нещитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с.,

Tadqiqot ishi natijalarining nazariy-amaliy ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyatini rivojlantirishda tadqiqot ishining xulosa, takliflardan foydalanish mumkin. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya fondining daromadlarini samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Tadqiqot ishi materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Pensiya ta‘minoti nazorati», “Xorijiy davlatlarda pensiya tizimi» va “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti» fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- pensiya fondlarining iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati ilmiy asoslandi;
- pensiya fondini boshqarishni isloh etishda xalqaro tajribalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
- Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya fondini investitsion faoliyati strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy xulosalar berildi;
- pensiya fondi mablag‘laridan investitsion maqsadlarda foydalanish uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.
- pensiya fondi mablag‘laridan investitsion maqsadlarda foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishining hajmi 91betdan iborat, tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Tadqiqot ishining kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi berilgan. Shuningdek, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, tadqiqot mavzusi bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili, tadqiqot ishining ob‘ekti va predmeti, tadqiqot ishining nazariy-amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda tadqiqot ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko‘rsatilgan.

Tadqiqot ishining «Ijtimoiy kafolatlarda pensiya ta'minotining o'rni va investitsion faoliyatning nazariy-huquqiy asoslari» nomli birinchi bobida davlat moliyasi tizimida pensiya fondlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va asosiy vazifalari yoritib berilgan. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasini tashkil etilishi ko'rsatilgan. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiyalarni jalb qilinishi o'rganilgan.

Tadqiqot ishining «Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va Jamg'arib boriladigan pensiya fondi investitsion faoliyatining tahlili» nomli ikkinchi bobida O'zbekistonda investitsion faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslarining hozirgi holati ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini boshqarilishi ko'rsatilgan. Moliyaviy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishining «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya fondlarining investitsion faoliyatini rivojlantirish masalalari» nomli yakuniy bobda pensiya fondlari faoliyatining xorijiy tajribalari ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasida pensiya fondi mablag'larini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llari berilgan. O'zbekiston Respublikasida pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish istiqbollari aniqlangan.

Tadqiqot ishining yakunida O'zbekiston Respublikasida pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

I BOB. Ijtimoiy kafolatlarda pensiya ta'minotining o'rni va investitsion faoliyatning nazariy-huquqiy asoslari

1. Pensiya jamg'armasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va asosiy vazifalari

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va ijtimoiy sohalar taraqqiyoti aholi turmush tarzi o'sishining muhim shartiga aylanib qoladigan yo'nalishdan bormoqda. Ijtimoiy-madaniy sohalar ijtimoiy vazifalardan tashqari, ijtimoiy xizmat sifatini yuksaltirish, iqtisodiy o'sish sur'ati bilan bog'liq iqtisodiy vazifalarni ham hal etadi. "...Joriy yilda obod hayotning asosiy sharti bo'lgan aholining real daromadlarini oshirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, yangi-yangi ish o'rinlari yaratish, sotsial masalalarni yechish borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirdik. O'ylaymanki, sizlar yaxshi xabardorsiz, mamlakatimizda har yili davlat budjetini qabul qilishda ayni ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. 2013 yilda bu sohaga ajratilgan mablag'lar budjetimiz umumiy xarajatlarining 60 foizini tashkil etdi. Bu esa 2012 yilga nisbatan 1 trillion so'mga ko'proqdir»¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "...Avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi»², deb doim ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoyalash vazifalarini bajarish zarurligini ta'kidlaydilar.

Budjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari orqali yo'naltirilgan xarajatlar mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega,

¹K Karimov I. "Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi \ 2013 yil. 8 dekabr.

²Karimov I "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2013 yil. 19 yanvar.

chunki ular aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi, mehnat bozorida resurslarining bo'lajak sifatini shakllantiradi. Inson qariganida munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratib berilishi ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadidir. Bu jarayonni amalga oshirishda Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining resurslarini samarali boshqarish va mablag'lardan foydalanish yo'nalishlarini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Pensiya fondi mustaqil moliya-kredit tashkiloti sifatida tashkil etilib qonun asosida davlat pensiya ta'minotini boshqarish maqsadida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Mazkur fondning asosiy tamoyili – avlodlar majburiyatlarining ta'minlanishidir. Aytaylik, inson hamma vaqt birdek kuch-g'ayratli bo'lmaydi. Shu bois yoshlik vaqtlaridan boshlab keksalikdagi farovonlikni ta'minlash maqsadida jamg'arma ixtiyoriga pul o'tkazib boradi va ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'zi jamg'argan mablag'lari hisobidan nafaqa oladi.

Iqtisodiy islohotlarni olib borish va takomillashtirishda davlat maqsadli jamg'armalari, xususan, pensiya jamg'armalarining ahamiyati kattadir. Pensiya jamg'armasi – aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz qismini pul mablag'i bilan ta'minlovchi mustaqil moliyaviy organidir. Pensiya jamg'armasi davlat ijtimoiy sug'urta badallari stavkalarini belgilash, nafaqa ta'minoti va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflarni tayyorlashda bevosita qatnashadi. Shuningdek sug'urta badallarining o'z vaqtida to'liq kelib tushishi va ularning to'g'ri sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi xuzurida Pensiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 459-sonli qaroriga muvofiq asos solingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 444-sonli «O'zbekiston Respublikasi Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, 2001 yil yanvardan O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi

O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari shu yildan boshlab jamlangan budjetning tarkibiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 490-sonli "Budjetdan tashqari Pensiya fondi boshqaruvini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori 2004 yil 21 oktyabrda e'lon qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, Pensiya fondi 2005 yil 1 yanvardan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi maqomini oldi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Coliq qo'mitasining Budjetdan tashqari Pensiya jamgarmasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funktsiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasiga yuklatildi. O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamgarmasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risida Nizom ishlab chiqildi. Ushbu me'yoriy hujjatga asosan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasining Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining vaqtincha bo'sh resurslarini O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi muddatli depozitlarga hamda qisqa muddatli davlat obligatsiyalariga joylashtirishga ruxsat berildi.

Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining samarali ish olib bormoqda. Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2010 yilning noyabr oyida Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasining qabul qilinishi yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining qonuniy va mantiqiy davomi bo'ldi. "„Kontseptsiyaga muvofiq, sud-huquq tizimini yanada isloh etish, jamiyatni rivojlantirish va demokratlashtirishning

muhim tarkibiy qismi sifatida sudlarning mustaqilligi va erkinligini mustahkamlash, qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi»¹.

«Pensiya – uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovidir»². Pensiyaga oid hujjatlar yig'ma jildi turadigan joy - pensiya olish joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limidir.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – pensiya ta'minoti huquqi bilan mustahkam bog'liq. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi»³.. Bizning respublikamizda Pensiya jamg'armasi orqali pensiyaning uch turini to'lash yo'lga qo'yilgan, bular yosh bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik uchun beriladi. Ijtimoiy nafaqani moliyaviy ta'minlanish uchun fuqaro yoshiga etishi, etarli ish stajiga ega bo'lishi, afsuski, boshqaruvchisini yo'qotishi yoxud nogiron bo'lishi kerak.

Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, Davlat budjeti mablag'larini boshqarish orqali budjetning iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksini amaliyotga joriy qilinishi, Budjet Kodeksi asosida davlat moliyasini boshqarish tizimida davlat maqsadli jamg'armalaridagi islohotlar amalga oshirilishi iqtisodiyotimiz rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat moliyasi rivojlangan mamlakatlar YaIM ning

¹K Karimov I. "Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi \ 2013 yil. 8 dekabr. Prezident matbuot xizmati

²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-son Qarori.

³O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartish kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2012 yil 5 yanvar.

katta qismini qayta taqsimlash vositasi hisoblanadi: Yaponiyada - $\frac{1}{3}$, Frantsiya, Niderlandiya, Norvegiyada - $\frac{1}{2}$, Shvetsiyada - $\frac{2}{3}$, Rossiyada - $\frac{1}{3}$. Respublikamizda ham davlat moliyasining asosiy daromadlari va shunga mos ravishda xarajatlarini aynan davlat budjeti orqali amalga oshiriladi, qolgan qismi esa budjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari hisssasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida «...Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi. 2013-yilda budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajada oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. 2013-yilda ham Davlat budjetining ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolinadi. Uning xarajatlar qismining 60 foizdan ortig'i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratilgan»¹. «...Ijtimoiy sohaga qaratilayotgan e'tibor sifatida Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qolgan va u umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etgan»² Pensiya tizimini isloh qilish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar ijtimoiy sohalar, jumladan, pensiya ta'minotini ham kamrab oladi. Chunki barcha islohotlarning asl maqsadi, insonga munosib turmush sharoitlarini yaxshilashdan iborat. Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi pensiya siyosati va davlat pensiya tizimini rivojlanishiga ham bog'liqdir.

¹Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2013 yil. 19 yanvar.

²Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2014 yil. 18 yanvar.

2.Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasini tashkil etilishi

Zamonaviy va samarali pensiya tizimlaridan biri jamg'arib boriladigan pensiya tizimi hisoblanadi. Dunyo amaliyotidagi zamonaviy pensiya tizimlari jiddiy pensiya islohotlari natijasida shakllandi. Natijada fuqarolarning pensiya ta'minoti xususida ikki mustaqil yondoshuv shakllandi. Birinchi yondoshuv har bir jamiyat a'zosining ishsizlik, qarilik, kasalmandlik, nogironlikni sug'urtalashga asoslanadi. Taqsimlanuvchi pensiya tizimi muhim afzalligi shundaki, to'lanayotgan pensiya miqdori moliya bozorlarining holatiga va pensiya fondlarining faoliyatiga bog'liq emas. Shunday usulda moliyalashtiriladigan pensiyalar yuqori ish haqiga ega bo'lmagan shaxslar uchun ishonchli himoyani ta'minlaydi.

Ammo shuni alohida qayd etish joizki, taqsimlanuvchi pensiya tizimida pensiya fondlari miqdori demografik omillarga va mehnat bozorining ayrim holatiga (bandlik, ishsizlik, ish haqi darajasi, pensiya badali to'lovchilar soni bilan pensiya oluvchilar soni o'rtasidagi nisbat) to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Taqsimlanuvchi pensiya tizimida ma'lum yil davomida to'plangan ijtimoiy soliq ajratmalari joriy davrdagi pensionerlarga to'lashga sarflanadi. Shunday qilib, ishlab turgan fuqarolarning ijtimoiy soliq to'lovlari hisobidan kishilar qariganida pensiya xarajatlari moliyalashtiriladi.

Mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimi huquqini mustahkamlash, ish beruvchilarning pensiya yoshiga etgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilashdagi mas'uliyatini kuchaytirish, pensiya oluvchilarga davlat pensiya to'lovlariga qo'shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, shuningdek keksalik chog'ida fuqarolarning o'z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida islohotlar olib borildi. Natijada 2005 yildan respublikamizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimi amaliyotga joriy qilindi. Ikki holatda ham davlat keksaygan shaxslarga minimal pensiya yoki ijtimoiy himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko'rsatadi.

Mazkur tizimning mamlakatimizda qo'llanilishi jarayonida quyidagilarni amal qilish ko'zda tutilgan:

- ◆ jamg'arib boriladigan pensianing umumiy va majburiy xarakteri, ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirishdagi imtiyozlar kishining ijtimoiy himoyalash huquqining ta'minlanishi;
- ◆ jamg'arib boriladigan pensiya majburiy va ixtiyoriy shakllarning birligi teng huquqliligi shaxsning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan zaruriy darajasi ta'minlanadi va uning keksalik chog'ida yaxshi yashashi uchun ta'sir ko'rsatishi;
- ◆ turli xil pensiya tizimining bir vaqtning o'zida amal qilishidagi mustaqilligi va o'zini-o'zi idora qilish sharoitida majburiy jamg'arib boriladigan pensiya bo'yicha to'lovlar darajasi va tizimni barqarorligining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- ◆ jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxs va ish beruvchini moliyaviy ishtirokining majburiyligi, zaruriy holatlarda davlat dotatsiya va subventsiyalarining jalb etilishi.
- ◆ jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxsga uning jamg'argan badallari to'lashidagi moliyaviy ishtiroki tufayli hosil bo'lgan mablag'dan turli shakldagi moddiy yordam va xizmatlar ko'rsatishi ta'minlanishi;
- ◆ aholining tegishli ijtimoiy kategoriyalarni qamrab oluvchi kishilar guruhi yoki mamlakatning barcha aholisining u yoki bu pensiya ta'minot turidan manfaatdorligi;
- ◆ barcha jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxslarning xarajatlarini moliyalashtirish bo'yicha majburiyat va natijada ega bo'lingan huquq va kafolatlar nuqtai nazaridan tengligini ta'minlanishi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashda muhim o'rin tutadi.

1-jadval.

Dunyo aholisi tarkibida 65 va undan katta yoshdagilarning soni¹.

Mamlakatlar	Aholining umumiy soni, mln. kishi		65 va undan katta yoshdagilar ulushi	
	2004	2015 (prognoz)	2004	2015 (prognoz)
Jami	6389,0	7219,0	7,3	8,4
Rivojlanayotgan mamlakatlar	5093,0	5885,0	5,4	6,5
Xitoy	1308,0	1393,0	7,5	9,6
Xindiston	1087,0	1260,0	5,2	6,2
Rossiya	143,9	136,7	13,6	13,3
MDH mamlakatlari	1164,0	1233,0	13,6	16,1
Yaponiya	127,9	128,0	19,2	26,0
AQSh	295,4	325,7	12,3	14,1

Dunyo aholisi tarkibida 2004-2015 (prognoz) yillarda 65 va 65 yoshdan katta yoshdagilarning sonini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak quyidagilar aniqlanadi (1-jadval). Jami 65 va undan katta yoshdagilar ulushi 2015 yilga kelib 8,4 foizga etib keladi va bu ko‘rsatkich 2004 yilga nisbatan 1,1 foizga o‘sib boradi. Eng yuqori ko‘rsatkich Yaponiyada – 26,0 foiz, IXTT mamlakatlarda – 16,1 foiz, AQShda – 14,1 foiz va Xitoyda – 9,6 foiz kutilmoqda. Rossiyada esa bu ko‘rsatkich 13,6 foizdan 13,3 foizga kamayib boradi.

O‘zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarni qo‘llashni talab etadi Mamlakatimizda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta‘minlash, qarilikni himoyalash, siyosiy, ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltirish va kelgusida fuqaroning moddiy ta‘minotini ko‘paytirishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir, degan xulosani keltirish mumkin.

Dunyo aholisining soni, yillik o‘sishi va aholi tarkibida 15-64 yoshdagilarning ulushini quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqish mumkin. Berilgan jadvaldan ko‘rinadiki, 2010 -2015 yillarda barcha davlatlarda

¹ Development Human Report 2012. <http://hdr.undp.org>

aholining o'rtacha yillik o'sishi 2010-2015 yillarda 1,1 foizga teng bo'ladi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 1,2 foiz kutilmoqda, ammo bu ko'rsatkich 1990-1995 yillarda 2,2 foizga etgan(2.-jadval). Aholi tarkibida 15-64 yoshdagilar ulushi jami barcha mamlakatlarda 65,4 foizdan 1990 yilda 54,0 foizga 2015 yilda kamayishi kutilmoqda. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 1990 yildagi 81,5 foizdan 2015 yilda 49,3 foizga pasayishi kutilmoqda.

2.-jadval

Dunyo aholisining soni, yillik o'sishi va aholi tarkibida 15-64 yoshdagilarning ulushi¹.

Mamlakatlar	Jami aholi soni (mln.kishi)			Aholining yillik o'sishi (foizda)		Aholi tarkibida 15- 64 yoshdagilar ulushi	
	1990	2010	2030	1990- 1995	2010- 2015	1990	2015
AQSH	254,9	317,6	370,0	1,2	0,9	51,7	49,6
Germaniya	79,4	82,1	77,9	0,5	-0,2	45,0	51,1
Yaponiya	123,2	127,0	117,4	0,4	-0,2	43,5	55,7
Frantsiya	56,8	62,6	66,5	0,4	0,4	52,1	54,7
Italiya	57,0	60,1	59,5	0,1	0,2	46,2	52,9
Chexiya	10,3	10,4	10,5	0,0	0,2	51,5	41,5
Chili	13,2	17,1	19,8	1,8	0,9	56,4	46,0
Qozog'iston	16,5	15,8	17,2	-0,7	0,7	59,5	44,5
Rossiya	148,1	140,4	128,9	0,1	-0,3	49,4	38,7
O'zbekiston	20,5	27,8	33,9	2,2	1,2	81,5	49,3
MDH mamlakatlari	911,0	1026, 3	1093,3	0,7	0,4	49,1	49,7
Jami davlatlar	5290, 4	6908, 7	8308,9	1,6	1,1	65,4	54,0

Jahon tajribasi guvohlik beradiki, keksalarni moddiy ta'minlashga imkon yaratuvchi kuchli moliyaviy mexanizmini yaratildi. Ko'pgina mamlakatlar bir qator pensiya islohotlarini amalga oshirdilar. Chexiyada pensiya bilan ta'minlashni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari: zararli va og'ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilarning sug'urta qilingan badallariga qo'shimcha badallarni kiritish, to'langan badallar va olingan pensiyalar o'rtasida

¹ Development Human Report 2006. <http://hdr.undp.org>

aloqani kuchaytirish, ijtimoiy sugʻurta tizimini rivojlantirish, individual pensiya rejaları imkoniyatlarini kengaytirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015-2020 yillarda 65 yoshgacha oshirishdan iborat.

Pensiya taʼminoti xususidagi ikkinchi yondoshuvning mohiyati shundaki, har bir inson oʻz hayoti uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlarni yaratish huquqiga ega. Bu esa, davlat pensiya tizimini fuqarolarning ish haqi va investitsion daromadlari hisobidan pensiya badallari toʻlashga asoslangan nodavlat turlari bilan almashtirishni koʻzda tutadi. Jamgʻarib boriladigan pensiya tizimi har bir ishtirokchida alohida hisobvaraqa boʻlishini taqozo etadi va ushbu hisobvaraqa har bir fuqarodan majburiy ajratma kelib tushadi va kelgusida pensiya toʻlovlari amalga oshiriladi. Bunda turli avlod vakillari oʻrtasida mablagʻlarni taqsimlash boʻlmaydi, butun pensiya tizimi daromadlarning bir qismini toʻplash va qayta taqsimlash jarayoni boʻladi. Mazkur tizimning asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

- jamgʻariladigan asosga oʻtgan pensiya tizimi yalpi milliy jamgʻarish hajmini oshiradi va investitsiyalar miqdorining oʻsishiga olib keladi;
- xususiy boshqaruv ostidagi pensiya tizimi raqobat va siyosiy aralashuvdan xoli boʻlganligi tufayli davlat pensiya tizimiga nisbatan samarali boʻladi;
- jamgʻariladigan pensiya tizimi demografik muammolarga bogʻliq boʻlmaydi;
- jamgʻariladigan pensiya tizimi pensiyalar miqdorini insonning ish haqiga va pensiya jamgʻarmalaridan foydalanish samaradorligiga bogʻliq ravishda tabaqalashtirish imkonini beradi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarni jamgʻarib boriladigan pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Qonunida koʻzda tutilgan quyidagi xususiyatlarni koʻrsatish mumkin.

1. Jamgʻarib boriladigan pensiya taʼminoti tizimiga hisobga qoʻyishning va badallar toʻlashning majburiy-ixtiyoriyligi, yaʼni muayyan hollarda majburiy ravishda hisobga qoʻyish va badallar toʻlab borishning shartligi va boshqa hollarda yoki ayrim shaxslarning tizimda hisobga qoʻyilishi va toʻlovlarni

amalga oshirib borishning ixtiyoriy ekanligi masalan, barcha yuridik shaxslar o'z xodimlarini hisobga qo'yishlari va to'lovlarni o'tkazishlari majburiyligi, yuridik shaxs bo'lmagan yakka tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari a'zolari va boshqalarga bu boradagi ixtiyoriylik.

2. Mablag'larning maxsus jamg'arib boriladigan pensiya fondiga emas, balki Xalq banki muassasalarida jamg'arib borilishi, ularga inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan foizlik daromadlar hisoblanishi va to'lovlar ham kelgusida ushbu bank orqali to'lanishi. Ya'ni mablag'larning saqlanishi va to'lanishi kafolatini davlat o'z zimmasiga olishi.
3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining mutlaqo individuallashtirilganligi va har bir to'lovchi uchun alohida maxsus hisobvarag'i ochilganligi hamda respublika bo'yicha yagona elektron ma'lumotlar bazasi yaratilganligi, binobarin ishlovchi fuqarolar yashash yoki ish joyini o'zgartirishi tizimda hisobga turishga ta'sir qilmasligi.
4. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini iqtisodiy tarmoqlariga investitsiya qilinishi va shu hisobdan tizimga yig'ilayotgan mablag'larining hamda fuqarolarning shaxsiy hisobvaraqlaridagi mablag'larning inflyatsiya darajasidan yuqori miqdorlarda va uzluksiz ko'payib borishiga erishilishi.
5. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti uchun badallar har bir xodim tomonidan o'z oylik ish haqidan to'lansada, ammo bu to'lov uning daromadlarining kamayishiga salbiy ta'sir qilmasligi.
6. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti uchun to'lanadigan badalning xodimdan ushlab qolinadigan jismoniy shaxslarning daromad solig'i hisobidan (soliqni kamaytirilishi hisobiga) amalga oshirilishi.
7. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorining dastlab kam darajada (oylik ish haqining bir foizi miqdorida) belgilanishi va kelgusida uning miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan oshirib borilishi imkoniyatlari mavjudligi.

8. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti uchun to'plangan mablag'larni shaxsiy hisobvaraqlar egalari tomonidan tasarruf qilish asoslari kengligi va soddaligi hamda hech qanday cheklovlar yo'qligi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini me'yoriy huquqiy xujjatlari takomillashtirib borilmokda. Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirishning nazariy asoslarini, ijtimoiy siyosatda mazkur jamg'armaning zarurligi va ahamiyatini, Pensiya jamg'armasi mablag'larini moliyalashtirish manbalarini, faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish qator xulosalar uchun imkon bermoqda. Dunyo amaliyotidagi zamonaviy pensiya tizimlari jiddiy pensiya islohotlari natijasida shakllandi. Natijada fuqarolarning pensiya ta'minoti xususida ikki mustaqil yondoshuv shakllandi. Birinchi yondoshuv har bir jamiyat a'zosining ishsizlik, qarilik, kasalmandlik, nogironlikni kollektiv sug'urtalashga asoslanadi. Bu – taqsimlanuvchi pensiya tizimi va jamg'arma pensiya fondi tizimi. Pensiya ta'minoti xususidagi ikkinchi yondoshuvning mohiyati shundaki, har bir inson o'z hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish huquqiga ega. Bunda turli avlod vakillari o'rtasida subsidiyalash mavjud bo'lmaydi, butun pensiya tizimi daromadlarning bir qismini to'plash va qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi.

3. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiyalarni jalb qilinishi

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning katta ahamiyatga ega, uni quyidagilar bilan izohlanadi. Birinchidan, investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi. Uchinchidan, biznes va xususiy tadbirkorlikni

rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi. Shuningdek, korxonaning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi. Shunday qilib, investitsiya kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishning muhim omilidir.

Investitsiyalar har qanday milliy iqtisodiyot uchun muhim va dolzarb resurs hisoblanadi. Investitsiyalar YaIMning bir bo'lagi bo'lib, agar YaIM hajmi ortsa, investitsiya hajmi ham ortadi, davlatning ixtiyoridagi investitsiya resurslarini tashkil etadi. Davlatning investitsiya siyosati doirasini kengaytiradi. Davlat investitsiya siyosatining uch jihatiga e'tibor beradi.

1. Davlatning budjet daromadlari va olgan qarzlarini hisobidan mablag'larni investitsiyaga yo'naltirish.
2. Davlat tomonidan milliy va xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish.
3. Davlat sektori bilan xususiy sektorlardagi investitsiya faoliyatini rag'batlantirish.

Markazlashgan kapital qo'yilmalar manbalari quyidagilardan iborat:

- davlat budjeti mablag'lari;
- davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlar mablag'lari;
- O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati bilan chet el investitsiyalari va kreditlari.

Markazlashmagan kapital qo'yilmalar manbalari quyidagilardan iborat:

- qo'shma, xorijiy, xususiy, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining xususiy korxonasi mablag'lari;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mablag'lari;
- tijorat banklarining kreditlari;
- aholining mablag'lari.

“Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi, yangi qurilishlarga, korxonani kengaytirishga, rekonstruktsiyaga va faoliyat

ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. "Investitsiyalar" "kapital qo'yilma"ga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir¹. Investitsiyalarga berilgan ta'riflar tahlilida investitsiyalarni ichki va tashqi investitsiyalarga ajratishning zarurligi asoslanadi, bu investitsiyalar mohiyatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodchilar va amaliyotchilar tomonidan "investitsiyalar" tushunchasi turlicha talqin qilinmoqda. Odatda, "investitsiya" deganda, kelgusida daromad olishni mo'ljallab, hozirda muayyan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tushuniladi. Iqtisodchilardan N.H.Haydarov tomonidan investitsiyalar tushunchasiga berilgan ta'rifda esa, investitsiyaning mohiyati davlat, aholi va turli mulk shaklidagi korxonalarining moliyaviy, mulkiy va intellektual boyliklariga nisbatan tegishli bo'lgan qonunlar doirasida jalb etilishi o'zining aniq aksini topgan².

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va ijtimoiy mohiyatini aniq belgilash muhim vazifa hisoblanadi. Faqat kapitalni yo'qotish riski mavjud bo'lgan pul shaklidagi investitsiyalar yangi aktivlarni vujudga keltiradi. Investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida hozirgi xarajatlarni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiyalar» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan mablag'larga doir huquqlar tarzida ko'rsatiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim D.G'.G'ozibekov tomonidan bayon etilgan ta'rifda, "investitsiyalarning noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratligi, buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularni ongli ravishda risklar bilan bog'lanishi keltirib o'tilgan. Biznes Oksford slovarida «risk – xavf-xatar, yo'qotish yoki zarar ko'rish» degan tushunchani bildiradi. V.V.Shaxov esa risk-xavfsiz bo'lgan, ma'lum bo'lmagan natija uchun qaror


¹Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU. 2010. –B.15.

²Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2003. –B.14-15.

qabul qilishdir deb izohlaydi. Profesor V.M.Usoskin «risk» doimo noaniqlik bilan birga kelib, o'z navbatida oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi, deb izohlaydi. Moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda risklar mavjud ekan, ularni o'rganish, nazorat qilish, baholash va boshqarish doimo muhim bo'lib qolaveradi. Risklarni iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Rus olimlarining M..Kudryatsov, A.Yu.Korolyovning fikricha, «moliyaviy risk» – bu ob'ektiv kattalik yoki ehtimollik ko'rsatkichi bo'lib, hozirgi sharoitda va kelajakda belgilangan ma'lum vaqt oralig'ida iqtisodiy sub'ektlardan yo'qotilishi kutilayotgan daromadni tasniflaydi. Ya.M.Mirkin moliyaviy risk – bu daromadni kamaytiruvchi risk deb ta'rif beradi.

Moliyaviy risklar to'g'risidagi fikrlarimizni rivojlantirish va risklarning mohiyatini to'liq ochib berish maqsadida moliyaviy riskka quyidagicha ta'rif beramiz. «Moliyaviy risk» deganda – moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish natijasida, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olmaslik, kerakli imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmaslik tushiniladi. Moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish natijasida kutilayotgan moliyaviy daromadning bir qancha omillar ta'siri natijasida kamayish yoki oshish ehtimoli tushuniladi

Mamlakatimizda qulay investitsiya muxitini yaratish, mahalliy investorlarni faoliyatini kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizga oqilona jalb etish va ulardan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini ta'kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur. O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o'sdi.



1.-rasm. Investitsiya jarayonining ishtirokchilari¹

Investorlar - xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlaridir. Investorlar ob'ektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega. Investorlar kreditorlar va xaridorlar rolini

¹ Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: “TDIU”. 2010. –B. 21.

bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funktsiyalarini bajarishlari mumkin (1.-rasm). Investitsiya dasturi - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o‘zgartirishning asosiy ustuvorliklari va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan chora-tadbirlar kompleksidir. Investitsiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo‘ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko‘zda tutilgan mablag‘lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo‘yicha aks ettiriladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, “risk” bu iqtisodiyotdagi har xil kategoriyalarda paydo bo‘ladigan, kengayib boradigan va o‘zini mustaqil kategoriyalariga ega bo‘lib borayotgan tushunchadir. “Risk” kategoriyalarini aniqlash, ularni boshqarish va baholash usularini yaratilishi ko‘p sohalarda muhim o‘zgarishlarga olib keldi. “Risk” tushunchasi ko‘p qirrali so‘zlar bilan umumlashgan bo‘lib, har bir jumla orqali yoritilganda ma’lum bir yo‘nalishlarni belgilab beradi. Bu esa riskni talqin etishda turlicha izohlarni keltirib chiqardi (3-jadval).


3-jadval

Riskka yaqin sinonimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik¹

№		Yaqinlik foizi
1.	Xavf- xatar	25
2.	Taxdid	25
2.	Extimollik	20
3.	Imkoniyat	15
4.	Mavhumlik	10
5.	Noaniqlik	10
6.	Og‘ish, chetga chiqish	6
7.	Tavakkalchilik	2
8.	Imkon	2
9.	O‘zgarish	2
10.	Harakat	1

¹ Smirnova E.. Proizvodstvenniy risk: sushchnost i upravlenie. Monografiya. Moskva.: 2012. – S 3.

D.Shekl o‘z ilmiy ishlarida esa riskni «bilmasdan» «kutilmagan xodisa» tushunchalari orqali asoslab berishga harakat qilgan. Chikago maktabining namoyondalari «tushunmovchilik», ya’ni «risk» to‘g‘risidagi muammolarni ochib berishda ham katta rol o‘ynadilar. Bu maktabning yorokin namoyondasi F.Samo daromad orqali yuzaga keladigan riskni kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘ladigan «noaniqlik», «tushunmovchilik» deya ta’riflagan. Mashxur Vebstera lug‘otida «risk»ka «xavf», «zarar» yoki «talofat ko‘rish ehtimoli» deb qaralgan.



2.-rasm.Investitsiyalarning tasniflanishi¹.

¹ G‘ozibekov D.G’. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. – T.: Monografiya. “Moliya”. 2003.-B.17.

Investitsiyalash sub'ektlari nuqtai nazaridan investitsiyalarni xususi, korporativ va davlat investitsiyalariga ajratish mumkin (2.-rasm). Rasmdan ko'rinib turibdiki, investitsiyalarning maqsadi, investitsiyalarni yo'naltirish sohalari, investitsiyalash ob'ektlari, investitsiyalash sub'ektlari va moliyalashtirish manbalari o'rtasida uzviy aloqalar mavjud. Portfel investitsiyalar o'z tarkibiga qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar, aksiyalar va obligatsiyalarni olishi mumkin. Portfel investitsiyalarni shakllantirish usullari ko'p. Uilyam Sharp va Garri Markovitslarning fikricha, portfel investitsiyalar nazariyasining qoidalarini quyidagicha:

- investitsiya aktivlari turlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi lozim;
- muayyan turdagi qimmatli qog'ozga investitsiya tavakkalchiligi foydaning kutilayotgan darajadan farqlanishi ehtimoli bilan belgilanadi;
- portfel investitsiyalarning umumiy daromadlilik va xatarini uning tarkibini o'zgartirish orqali o'zgartirish mumkin;
- portfel investitsiyalarni shakllantirishda nazarda tutilayotgan barcha mo'ljallar va mezonlar ehtimoliy xarakterda bo'ladi.

Portfel investitsiyalar korxonaning karz majburiyatlari yoki uning aksiyalari tarkibida kiritish mumkin. Buning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan farqi investitsiya qabul qilgan korxonaning faoliyati ustidan nazorat o'rnatilmaydi. Bunday portfel investitsiyalarni qo'lga kiritishning asosiy maqsadi korxona o'zining moliyaviy sharoitini yaxshilab olishdir. Bunday investitsiya berayotgan firma yoki bankning maqsadi qisqa muddat ichida katta foyda olishdan iborat.

Portfel investitsiyalarning bir necha turlari mavjud:

- o'sish portfeli – narxi tez o'sayotgan qimmatli qog'ozlar to'plami;
- daromad portfeli – yuqori va qat'iy joriy daromadni ta'minlovchi qimmatli qog'ozlar to'plami;
- xatarli sarmoya portfeli – yangi, yosh korxonalarning qimmatli qog'ozlar to'plami;

- maxsus portfel – qimmatli qog‘ozlarning ayrim guruhlarinigina o‘z ichiga oladi;
- balansdagi yoki aralash portfel – turli xildagi qimmatli qog‘ozlar to‘plami.

Portfel investitsiyalarni shakllantirishdagi asosiy maqsad tavakkalchilik bilan daromadning investor uchun optimal nisbatiga erishish hisoblanadi. Optimallik iloji boricha xatar hisobiga yo‘qotishlarni kamaytirish va eng yuqori daromadlilik bilan harakterlanadi. Xatarni minimallashtirishga ko‘pincha diversifikatsiya, ya’ni xilma-xil fond qiymatliklarini sotib olish hisobiga erishiladi. Bir turdagi qimmatli qog‘ozdan olingan past daromad boshqa turdagi qimmatli qog‘ozdan olingan yuqori daromad hisobiga qoplanadi. Portfel investitsiyalarni tashkil qilishda investor qo‘yidagi maqsadlarga e’tibor berishi lozim:

- portfeldan daromadni maksimallashtirish maqsadi;
- portfelga kirgan qimmatli qog‘ozlarni kurs bo‘yicha bahosining oshirishga mo‘ljallangan maqsadlar;
- o‘zi uchun maqbul bo‘lgan tarkibdagi xatar va daromadliliigi darajasi bo‘yicha salmog‘ini aniqlash.

Portfel investitsiyalarni nazariy va amaliy boshqarishda ikki xil yondoshuv mavjud: an’anaviy va zamonaviy. An’anaviy yondoshuv fundamental va texnik tahlilga asoslangan. U ko‘proq qog‘ozlarni tarmoqlar bo‘yicha keng doirada sotib olishga mo‘ljallanadi. Portfel investitsiyalarni zamonaviy boshqarish nazariyasi statistik va matematik usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Uning o‘ziga xos xususiyati – bozor tavakkalchiligi va daromadliliigi orasidagi bog‘lanish optimallik mezonini orqali aniqlanadi. Bunda kompyuter texnikasi va matematik hisoblash usullari ishga solinadi. Portfel investitsiyalar strategiyasi moliyaviy menejmentni strategiyasining ajralmas qismini tashkil qiladi. Portfel investitsiyalarni stragegiyasini vazifasi tashqi investitsion faoliyatdan samarali foydalanishga sharoit yaratishdir. Portfel investitsiyalarni strategiyasi korxona va tijorat tashkilotidagi moliyaviy menejment strategiyasiga bo‘ysundiriladi.

Doimiy tarzda respublika va jahon moliya bozorini o'rganish va tahlil qilish zarur.


Yuqorida aytib o'tilgandek Pensiya fondi moliya bozorida investor sifatida qatnashish mumkin. Fond pensiya ta'minoti tizimidagi mablag'lari bank depozitlari, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilinishi mumkin, ammo bu jarayonda Pensiya fondi mablag'lari aholini mablag'laridan to'planganligi tufayli moliya bozorida mavjud bo'lgan risklarga e'tiborni qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Investitsion faoliyat tushunchasining turlari, maqsadi, zarurligi va ahamiyati bilan tanishib chiqamiz. Investitsiyalashdan maqsad kapitalni joylashtirish va undan foyda olishdir. Jamg'arma investitsiyaning manbasi sifatida xizmat qiladi. Quyidagi rasm yordamida investitsiya va jamg'arma faoliyatining aloqadorligini ko'rib chiqamiz (3.-rasm)

Rasmda ifodalanganidek, iqtisodiyot sub'ektlari daromadlari bir qismi jamg'armaga aylanadi. Jamg'armalar esa investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Investitsiya vositasida ishlab chiqarish kengaytiriladi, texnik va texnologik jihatdan takomillashtiriladi. Investitsiya tadbirkorlik faoliyatining moddiy-iqtisodiy negizidir. Investitsiya samarasi, bir tomondan tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy natijalarida, qiymat ko'rinishida ifodalansa, investitsiyaning qancha muddatda o'zini oqlashi mumkinligi uning samaradorligini vaqt birligi orqali ifodalaydi.

«Investitsiya» tushunchasi «kapital qo'yilmalar» tushunchasiga nisbatan mazmun jihatdan olganda kengroq tushunchadir. Asosiy fondlarni yangilashga va kengaytirishga sarf etiladigan mablag'larga kapital qo'yilmalar deb ataladi. Investitsiya qo'yish ob'ektlari kapital qo'yilmalar ob'ektlariga nisbatan ancha kengroqdir. Kapital qo'yilmalar ob'ektiga asosiy fondlar kirsa, investitsiya ob'ektlariga aylanma mablag'lar, aktsiya, obligatsiya va boshqa moliyaviy ob'ektlar, shuningdek mulklardan foydalanish va egalik qilish huquqlari, ilmiy-texnika mahsulotlari, nou-xau, kadrlar tayyorlash va boshqalar ham kiradi. Investitsiyalar, qo'yiladigan ob'ektlarga ko'ra real, moliyaviy va intellektual

investitsiyalarga bo‘linadi. Asosiy fondlar va aylanma mablag‘larga investorlar qo‘yadigan barcha turdagi mablag‘lar real investitsiya deb ataladi. Hozir Respublikamiz milliy iqtisodiyotini tarkibiy qayga ko‘rish uchun yangi texnika, texnologiya va katta hajmdagi qurilish ishlarini amalga oshirish zarurligi sababli real investitsiyalarga ehtiyoji juda kattadir. Bu ehtiyojni qondirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri korxonalar investitsion faoliyatini rag‘batlantirish hisoblanadi.



3.-rasm. Investitsiya va jamg‘armalarning bir-birlari bilan aloqadorligi¹

Aksiya, obligatsiya va boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarga investorlar qo‘yadigan barcha turdagi mablag‘larga moliyaviy investitsiya deyiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni chuqurlashtirish, antimonopol qonunlarning amal qilishini ko‘chaytirish, erkin tadbirkorlik yo‘lidagi barcha to‘siqlarni olib tashlash yordamida moliyaviy bozorni rivojlantirish natijasida moliyaviy investitsiyalar aktivlashadi. Bu orqali vaqtinchalik bo‘sh bo‘lgan moliyaviy resurslar sohalar, tarmoqlar, yuridik va

¹ Muallif tomonidan matn asosida tuzilgan.


jismoniy shaxslardan zarur sohalarga oqa boshlaydi. Oqibatda esa butun iqtisodiyotda umumiy investitsion faoliyat rivojlanadi.

Berilgani rasmda investitsion potentsialga ega sub'ektlar ko'rsatib berilgan (1.3.4-rasm). Investitsiya faoliyatini boshqarish davlat va yirik banklar aralashuvini ham taqozo etadi. Tadbirkorni jamiyat miqyosidagi muammolar (ishsizlik, tovarlar ortiqchaligi yoki etishmovchiligi) qiziqitirmaydi.

Davlat mamlakat ichida ishsizlikni kamaytirish uchun yangi ish joylarini yaratish maqsadida kapital qo'yilmalarni ko'paytirishga intiladi. Davlat bilan tadbirkorning investitsiya siyosati bandlikni ta'minlashdagina emas, balki iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda ko'rinadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy vazifasi ko'p sonli investorlarning bo'sh pul resurslarini to'plab, ularni iqtisodiyotining ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirishdir. Qimmatli qog'ozlarning eng asosiy xususiyatlari aylanuvchanlik (muomalada bo'lishlik) va to'lovga layoqatlilik (likvidlilik) dir. Aylanuvchanlik – qimmatli qog'ozning bozorda harid qilinishi va sotilishi, shuningdek ko'p hollarda mustaqil to'lov vositasi sifatida ishlatish xususiyati. Likvidlik – qimmatli qog'ozning uning egasi uchun yo'qotishlarsiz, bozor qiymati va sotish chiqimlaridagi kichik o'zgarishlar bilan tez sotilishi va pul mablag'lariga aylanishi (naqd pul yoki naqd pulsiz shaklida) xususiyatidir.

Moliyaviy investor mablag'lari investitsiyalangan qimmatli qog'ozlar yig'indisi portfel investitsiyalar deb ataladi. Portfel investitsiyalarni shakllantirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi: xavfsizlik (risk, ya'ni tavakkalchilikni kamaytirish), daromadlilik, likvidlik va qo'yilmalarning o'sishiga erishish. Bu tamoyillar muayyan darajada bir-biriga bog'liq xarakterda bo'ladi. Masalan, daromadlilikni oshirishga intilish riskni kuchaytiradi, ya'ni investitsiya qiymatini boy berish xavfi ortishiga olib keladi. Yuqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar hamma vaqt ham yuqori daromad keltirmaydi. Davlat qimmatli qog'ozlari likvidlik darajasi yuqori, tavakkalchilik past, lekin korxonalar qimmatli qog'ozlariga nisbatan pastroq daromad keltiradi.

Investitsion salohiyatga ega sub'ektlar aloqadorligi¹

¹ Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU. 2010. –B.37.

Ishonchli firmalarning qimmatli qog'ozlaridan shakllangan portfel investitsiyalar konservativ portfel investitsiyalar bo'ladi. Agressiv portfel investitsiyalar likvidligi yuqori bo'lmagan, xatar darajasi kuchli, lekin kelajakda tez yuksalishi kutilayotgan kompaniyalar qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi.

I BOB bo'yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Davlatning investitsiya siyosatida ikki xil natijaviy yo'nalish mavjud: birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning moddiy asosini tashkil qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ikkinchisi, jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy sohalarga mablag' sarflash kerak. Bozor iqtisodiyotida davlat muhim maqsadlarni ko'zlab investitsiya faoliyatini olib borishga harakat qiladi. Iqtisodiyotida investorlarning qatorida hozirgi kunda etakchi va asosiy rolni davlat organlari egallaydi. Moliya - kredit institutlari kengayadi, shuningdek aholining jamg'armalari yig'iladi. Investorlar ichida Pensiya jamg'armasi ham munosib o'rin egallashi zarurligi yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda.
2. Investitsiyalarning noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iborat ekanligi, buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularni risklar bilan bog'lanishi keltirib o'tilgan. «Noaniqlik»ni yuzaga kelishi bu olingan daromad va kutilayotgan daromadni darajasi bilan bog'liq bo'lib, bu hamisha daromadga erishishga emas, balki o'sha teskari munosabat zarar ko'rishga ham olib kelishi mumkin, deb izohlanadi.
3. «Moliyaviy risk» deganda—moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish natijasida, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olmaslik, kerakli imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmaslik tushiniladi. Moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish natijasida kutilayotgan moliyaviy daromadning kamayish yoki oshish ehtimoli tushuniladi

4. Iqtisodiyotda davlat investitsiyalari va xususiy investitsiyalar har biri o'ziga xos muammolarni hal etadi. Ularning yo'nalishlari, tashkil etilishi va boshqarish tartibi farq qiladi. Xususiy investitsiya mulkdorning o'z mablag'lari hisobiga va jalb etilgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi. Xususiy investitsiyalash jarayonini tadbirkor yoki moliyaviy menejer boshqaradi. Davlat investitsiyasini asosiy tashkil etish manbalari budjet mablag'lari va uzoq muddatli kredit hisoblanadi. Davlat investitsiyalari fondlarni tuzish orqali ham amalga oshiriladi. Bu fondlar uzoq muddatli qo'yimlarni moliyalashtirishga, iste'mol fondi va jamg'armaga yo'naltiriladi.
5. Bizning fikrimizcha, Pensiya jamg'armasining moliyaviy faoliyatini investitsiyalash ko'rinishida takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.
6. Pensiya fondi moliya bozorida investor sifatida qatnashish mumkin. Fond pensiya ta'minoti tizimidagi mablag'lari bank depozitlari, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilishi mumkin, ammo bu jarayonda Pensiya fondi mablag'lari aholini mablag'laridan to'planganligi tufayli moliya bozorida mavjud bo'lgan risklarga e'tiborni qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

II BOB. BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI VA JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA FONDI INVESTITSION FAOLIYATINING TAHLILI

1. O'zbekistonda Respublikasida investitsion faoliyatning hozirgi holati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha rag'batlantirishlarni kuchaytirish, kafolat va imtiyozlarni kengaytirish, investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni shakllantirish zarurligi masalasining qo'yilishi mamlakatimizda investitsion muhitni barqarorlashtirish bo'yicha yo'nalishlarni belgilab olishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida mamlakatimizda investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar uchun olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yildan-yilga takomillashtirilmoqda. Hukumatimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, bir qancha qonun, qaror va farmonlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida investitsiyaning mazmuni - "iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar"¹ sifatida ta'riflanadi. O'zbekiston iqtisodiyotini yanada isloh qilish va modernizatsiyalash yo'lidan borib, xususiy biznes va tadbirkorlikni rivojlantirar ekan, investitsiya faoliyatini jadallashtirishda xalqaro tajribalarga tayanmoqda. Tadbirkorlik — mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik: tadbirkorning shaxsiy mol-mulki asosida; tadbirkorning boshqa fuqarolar va yuridik shaxslar, jumladan chet el fuqarolari hamda yuridik shaxslarning mol-mulkini turli shaklda jalb etishi asosida; tadbirkorning davlat va jamoat tashkilotlari mol-mulkidan foydalanishi asosida; yuqorida qayd etilgan shakllarni qo'shib olib borish asosida amalga oshiriladi.

¹O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 1998. 24 dekabr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Kaarimov ta’kidlaganlaridek, “..Eng muhimi, qonunlarimizga muvofiq ravishda iqtisodiyotda xususiy mulkning ustuvorligini amalda ta’minlash, uni qo‘llab-quvvatlash va daxlsizligini kafolatlash darkor. Ishbilarmonlik – biznes yuritish uchun amaliy qulay sharoit tug‘dirib berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish real iqtisodiyotni isloh etishning navbatdagi eng muhim yo‘nalishiga aylanmog‘i kerak. So‘nggi yillarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes yuritish, iqtisodiyotimizga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun zarur sharoit va qulay muhit yaratish borasida biz ulkan ishlarni amalga oshirdik»¹.

O‘zbekistonda mulkchilik shaklining turli-tumanligi, iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishning zaruriyati sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlariga o‘tish milliy modelining tarkibiy qismi yaratilishiga asos bo‘ldi. Bank tizimini rivojlantirish bilan iqtisodiyotning mustahkam faoliyat yuritishga, mamlakatda samarali investitsiya va tadbirkorlik muhiti shakllanishiga shart-sharoit yaratildi. Investitsiya jarayonlarini resurslar bilan ta’minlovchi bozor infratuzilmasi institutlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Biroq, mahalliy tadbirkorlarda investitsiya resurslari etarli emas. Shunga qaramasdan, fond bozoriga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha ko‘mak va imtiyozlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonunining 3-moddasida shunday deyiladi, tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob’ektlariga chet ellik investorlar tomonidan reinvestitsiya tariqasida qo‘shiladigan daromad deganda O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalashdan olingan har qanday mablag‘, jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va komission mukofotlar, texnikaviy yordam,

¹Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar va boshqa shakldagi mukofot pullari tushuniladi.

Qimmatli qog'ozlar – tovarlarining eng murakkab turi va shuning uchun emitentlar bilan investorlar o'rtasidagi moliyaviy vositachilikdir, fondlar bozorida qimmatli qog'ozlar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish ishlari shu bozorning malakali ishtirokchilari – brokerlar, dillerlar, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Respublikamizda moliya bozorini va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishini MDX davlatlaridagii ko'pchilik mamlakatlarning shunga o'xshash bozorlaridan farqlovchi xususiyatlar mavjud. Birinchidan fond bozorini bir tekisda rivojlanishi tamoyilning mavjudligidir. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini bevosita tartibga soluvchi me'yoriy-huquiy hujjatlar kabul qilindi. Hukumat mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy holatlardan kelib chiqib, moliyaviy muammolarini hal etishga va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga karatilgan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshiradi.

Moliya bozorlari, jumladan, qimmatli qog'ozlar bozori mamlakat aholisi turmush darajasini oshirishni ta'minlovchi milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sir o'tkazadi. Qimmatli qog'ozlar bozoriga investitsiyalar jalb etishga to'sqinlik qiluvchi eng asosiy omil – bu makroiqtisodiy nobarqarorlik natijasidan kelib chiqadigan inflyatsiya hisoblanadi. Chunki, inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishi pul jamg'arishdagi rag'batni kamaytiradi. Bunday sharoitda bo'sh mablag'larni strategik tarmoqlarga sarflagandan ko'ra, spekulativ operatsiyalar manfaatli bo'ladi, bu esa o'z navbatda, moliyaviy inqirozlarga olib keladi. 2007 yilda AQSh ipoteka inqirozi jahondagi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini izdan chiqishiga sababchi bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozori milliy xo'jalikni bozor mexanizmlari orkali o'zini-o'zi boshqara olmasligini va uni davlat tomondan tartibga solinishi zarurligini isbotladi.

Makroiqtisodiy siyosat - davlat tomonidan ish joylari bilan bandlikni oshirish, inflyatsiyani mu'tadil darajada ushlab turgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlash,

aholi turmush darajasini muntazam yaxshilanishiga karatilgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lishi lozim

Moliyaviy investitsiyalarni joriy va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratiladi. Joriy investitsiyalar – erkin sotiladigan va bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda egalik qilishga karatilgan qimmatli qog'ozlardir. Joriy investitsiyalar ulushli va qarz qimmatli qog'ozlari bilan aks ettirilgan bo'lishi mumkin.

Joriy investitsiyalar ulushli va qarz qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, aktsiya – amal qilish muddati belgilanmagan, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan aktsiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan ulush qo'shilganligini, aktsiya egasining ushbu jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlaydigan, shu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beradigan qimmatli qog'ozdir.

Qarz qimmatli qog'ozlar odatda obligatsiya, xazina veksellari, depozit sertifikatleri va boshqalar bilan ifodalanadi. Obligatsiya investorlar orasida joylashtirilgan, emitentning majburiyati shaklini aks ettiruvchi moliyaviy instrumentdir. Obligatsiyalar ma'lum muddatgacha to'lanishi lozim va foizlarning davriy to'lanib borishini talb kiladi. Obligatsiya egasi kompaniya unga qarzdor ekanini tasdiqlovchi sertifikat oladi.

Uzoq muddatli investitsiyalar – bir yildan uzoqroq bo'lgan muddatga egalik qilishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga ko'yilgan investitsiyalardir. Odatda ular investitsion portfelda ulushi (aktsiyalar) va qarz (uzoq muddatli obligatsiyalar) qimmatli qog'ozlar bilan ifodalanadi. Uzoq muddatli investitsiyalar hisobda avval sotib olish qiymati bo'yicha tan olinadi, so'ngra balansda quyidagi qiymatlarda hisobga olinishi mumkin :

- sotib olish qiymati bo'yicha;
- qayta baholash qiymati bo'yicha ;
- bozorda tashkil topgan bozor kiymatiga ega qimmatli qog'ozlar butun portfel investitsiyalar asosida aniqlanadigan sotib olish va bozor qiymatlarining eng kam qiymati bo'yicha xisobga olinishi mumkin.

Umuman olganda, qimmatli qogʻozlar bozori barqaror oʻsish tendentsiyasiga ega boʻlmoqda. Bu respublikamiz moliya bozorini erkinlashtirish boʻyicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi. Xususan, 2001 yilda “Qimmatli qogʻozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi” qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, 2002 yilda “Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining yuridik shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarish va ularning muomalasi toʻgʻrisidagi Nizom” kuchga kirdi. 2006 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Qimmatli qogʻozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2008 yildagi “Qimmatli qogʻozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi. Yuqoridagi hujjatlarning barchasi qimmatli qogʻozlar bozori rivojlanishida keskin burilish sodir boʻlishiga sababchi boʻldi.

2.Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi daromadlarini boshqarish

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining faoliyatini koʻrib chiqamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi tizimiga:

- Jamgʻarmaning Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamgʻarmaning tuman (shahar) boʻlimlari;
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Jamgʻarmaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya taʼminotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya toʻlovlari va boshqa toʻlovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa toʻlovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini taʼminlash;

- pensiyalar va boshqa to‘lovlarni to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil etish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;
- tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o‘tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta‘minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan qat’iy maqsadli foydalanilishini ta‘minlash;
- mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan mablag‘larni da‘volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;
- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish¹.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘armaning Kuzatuv kengashidir. Jamg‘arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta‘minoti respublika budjeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan tashqari, pensiya ta‘minoti vazifasini boshqa boshqaruv organlari bajaradilar. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi pensiya miqdorini belgilaydi va Davlat budjeti mablag‘larini qayta taqsimlaydi; Aloqa vazirligi nafaqa oluvchilarga uni etkazib beradi; Xalq banki pensionerlarni naqd pul va naqd pulsiz ko‘rinishdagi mablag‘ bilan ta‘minlaydi. Jamg‘arma "O‘zbekiston pochta" ochiq aktsiyadorlik jamiyati va O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo‘linmalarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari hamda boshqa to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi,

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-son Qarori.

fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o'rganadi. Jamg'armaning mablag'larini oluvchilar, pensiyalar hamda Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari:

- yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi¹.

Jahon amaliyoti tahlili ko'rsatishicha, ijtimoiy sug'urta samaradorligini oshirishda etakchi o'rinni pensiya tizimi egallaydi. O'zbekiston Respublikasining pensiya tizimi sug'urta asosida shakllantiriladigan va aholining ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltirilgan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanishga asoslanadi. Har qanday jamg'arma o'z faoliyatini olib borishi uchun mablag'larga ega bo'lishi talab etiladi. Budjetdan tashqari Pensiya Jamg'armasining daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to'lovlar va badallar:

- belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari;
- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;
- fuqarolarning sug'urta badallari;
- jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari;
- majburiy ajratmalar;

b) boshqa to'lovlar:

¹O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. 53-modd. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;
- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;
- hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalaridan tashqari);
- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, Davlat budjeti mablagʻlari va ixtiyoriy badallar.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

- manbalar turlari boʻyicha Jamgʻarmaga majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlarning toʻgʻri hisoblanishi, toʻliqligi va oʻz vaqtida toʻlanishi nazorat qilinishini;
- manbalar turlari va toʻlovchilar boʻyicha Jamgʻarmaga majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlar hisobi yuritilishini;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Jamgʻarmaga majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlar toʻgʻri hisoblanishini, shuningdek Jamgʻarma bilan oʻzaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;
- qonun hujjatlariga muvofiq majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlarni hisoblash tartibi va toʻlash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va maʼmuriy javobgarlik choralari qoʻllanilishini;
- badallarning shaxslar boʻyicha hisobini amalga oshirish va mehnat daftarchalarini yuritish uchun har chorakda Jamgʻarmaga yuridik shaxs boʻlmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanadigan shaxslar va dehqon xoʻjaliklari aʼzolari tomonidan toʻlangan badallarning miqdorlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar taqdim etilishini taʼminlaydi.

Quyidagi jadvalda Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi daromadlari va xarajatlarining oʻzgarishi berilgan (2.2.1.-jadval). Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi daromadlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.soʻmni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.soʻmga koʻtarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.soʻm rejalashtirildi. Ish haqidan yagona toʻlov salmoqli oʻringa ega. Daromadlar tarkibida ish haqidan yagona toʻlov 2011 yilda 3903,4 mlrd.soʻmni (63,5 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 4799,2 mlrd.soʻmga (60,0 foiz) koʻtarildi, 2013 yilda 5907,4 mlrd.soʻm (57,3foiz) **rejalashtirildi**

4.-jadval.

***O‘zbekiston Respublikasining Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi
daromadlari va xarajatlarining o‘zgarishi
(2011-2013 yillar)¹***

(mlrd. so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	Yillar		
	2011	2012	2013
Jami daromadlar	6144,4	8064,5	10302,1
Yil boshiga qoldiq	0,5	280,1	602,2
Daromadlar			
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov	3903,4	4799,2	5907,4
Fuqarolarning majburiy badallari	720,4	1110,2	1482,7
Sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratma	1122,7	1401,5	1591,3
Boshqa daromadlar	397,4	474,4	718,5
Xarajatlar	6144,4	8064,5	10302,1
Ishlamaydigan fuqarolarga pensiylar	5862,7	7246,0	9097,6
Ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar	278,9	290,9	317,4
Xomiladorlik va tug‘ish nafaqalari, bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa, dafn marosimi nafaqalari	0,7	12,8	20,5
Boshqa xarajatlar	1,6	1,8	2,1
Yil oxiriga qoldiq			
Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasiga ajratmalar	0,5	513,9	864,2

¹O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi..

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi Yagona g'azna hisobvarag'iga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi. Jamgarma daromadlari tarkibida sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratmalar 2011 yilda 1122,7 mlrd.so'mni (18,2 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 1401,5 mlrd.so'mga (17,3 foiz) ko'tarildi, 2013 yilda 1591,3 mlrd.so'm (15,4 foiz) ga teng bo'ldi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so'm belgilandi. Jamg'arma mablag'laridan ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar xarajatlari 2011 yilda 5862,7 mlrd.so'mni (95,4 foiz) tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 7246,0 mlrd.so'm (89,9 foiz)ga ko'tarildi, 2013 yilda 9097,6 mlrd.so'm (88,3 foiz) rejalashtirildi

Ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar 2011 yilda 278,9 mlrd.so'mni (4,5 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 290,0 mlrd.so'mga (3,6 foiz) ko'tarildi, 2013 yilda 317,4 mlrd.so'm (3,0 foiz) rejalashtirildi. Homiladorlik va tug'ish nafaqalari, bola tug'ilganda beriladigan nafaqa, dafn marosimi nafaqalari 2011 yilda 0,7 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 12,8 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 20,5 mlrd.so'm rejalashtirildi (2.2.2.-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidan yagona to'lov salmoqli o'ringa ega. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'arma xarajatlari tarkibida ishlamaydigan va ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar xarajatlariga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida ko'rsatilishicha, Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ochiladi. Shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

3.Moliyaviy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik natijalarining tahlili

Hozirgi vaqtda fond bozoriga investitsiyalar jalb etishni ko'paytirish, fond bozorini rivojlantirishni va natijada raqobat muhitini shakllanishining asosi hisoblanadi. Buning uchun xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va takomillashtirish yo'nalishidagi asosiy vositalardan hisoblanadi. Shu bilan birga xususiylashtirish va aktsionerlik jamiyatlarini tashkil etish bilan bog'liq bir qator muammolar borki, ularni hal etilishi fond bozorini rivojlanishi natijasida raqobat muhitini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda fond bozorining dolzarb mavzularidan biri ikkilamchi bozorni rivojlantirish xisoblanadi. Buning uchun, birinchi navbatda, ishonchli va samarali infratuzilma institutlarini rivojlantirish, ikkilamchi bozor ishtirokchilari va investorlariga turli xil imtiyozlar tizimini shakllantirish lozim. Investitsion institut emitentga quyidagi asosiy xizmatlarni ko'rsatadi:

- ✓ qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshirish, emissiya qilinayotgan qimmatli qog'ozlarni baholashda ko'maklashish, emitent va investor o'rtasida aloqa o'rnatish;
- ✓ qimmatli qog'ozlarni fond bozorida joylashtirish va u bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatardan himoyalash;
- ✓ qimmatli qog'ozlar kursini barqaror bo'lishida ko'maklashish.

Mahalliy emitentlar qimmatli qog'ozlarni xalqaro kapital bozorida joylashtirish ularni chet el fond birjalarida listingiga kiritish orqali xam amalga oshirilishi mumkin. Lekin chet el fond birjalari tomonidan listing bo'yicha kattiq talablar o'rnatilgan. Shu sababli ushbu birjalar listingiga kiritish uchun respublikamizda iqtisodiy jihatdan yirik korxonalar tanlanishi lozim. Maxalliy emitentlarni qimmatli qog'ozlarining etakchi chet el birjalari listingiga kiritilishi investorlar orasida ularning obru-e'tiborini keskin oshirib, qimmatli qog'ozlarining likvidlilik darajasining yuqori bo'lishiga imkoniyatlar ochib beradi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, milliy fond bozorining xalqaro kapitallar bozoriga integratsiyalashuvini muvaffaqiyatli ta'minlanishi

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga faol kirib borishidagi muhim qadamlardan biri bo'ladi.

Investitsion faoliyat turlari, ayniqsa, jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga mumkin bo'lgan investitsiya faoliyati turlari bo'yicha shug'ullanish bu - moliyaviy investitsiyalardir. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsion faoliyatini tahlil qilish, uning hozirgi holatini o'rganib chiqish va mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash hisoblanadi. Umuman olganda samaradorlik muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U sarflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo'ladi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda bilan qaytishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi hollarda yuzaga keladi. Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

1) Sof diskontlangan daromad (SDD) - butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$CDD = \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu erda:

N_t – hisob-kitoblarning t -qadamida erishiluvchi natijalar;

X_t – xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T – hisob-kitoblarning vaqt muddati;

E - diskont normasi.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont normasini ta'minlovchi hisoblanadi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni diskontlash koeffitsienti (d_t) ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$d_t = \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Bu erda:

t - natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash davrigacha bo'lgan muddat bo'lib, yillarda o'lchanadi.

Diskont normasi (E) - boshqa investorlar o'z mablag'larini xuddi shu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo'luvchi, kapitalning daromadlilik koeffitsienti (daromad miqdorining kapital qo'yilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o'zgaradigan bo'lsa, diskont koeffitsienti (d_t) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1 + E_k)}$$

Bu erda:

E_k – k-yildagi diskont normasi;

t- hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste'mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID) - keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bo'lsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

3) Ichki daromadlilik normasi (IDN) - keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo'lgan holdagi diskont normasi (E_{ich}), ya'ni E_{ich} (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E_{uq})^t} = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1+E_{uq})^t}$$

Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik normasi miqdori investorning kapitalga talab qiluvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qilinuvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) - investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_u = \frac{I_c}{\Pi_m}$$

Bu erda:

I_s – sof investitsiyalar;

P_m – loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mabla'lari oqimi, so'm.

Shu bilan birga qoplanish muddati loyihaning daromadliliigi ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi orqali ko'rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_u = \frac{M_n}{K} \times 100$$

Bu erda:

D_u – investitsiyalar daromadi, % da;

M_n – soliqlar to‘langandan so‘ng qolgan foyda, so‘m;

K - investitsiyalar (boshlan‘ich).

Moliyaviy qo‘yilmalarning ma‘lum bir qismi qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: qimmatli qog‘ozlar bozorida doimiy muomalada bo‘layotgan (bozor kotirovkasiga ega bo‘lgan) qimmatli qog‘ozlar va doimiy muomalada bo‘lmayotgan (bozor kotirovkalariga ega bo‘lmagan) qimmatli qog‘ozlar. Tijorat banklari asosan bozorda doimiy muomalada bo‘layotgan qimmatli qog‘ozlar bilan ish olib borishga harakat qiladi, chunki ularni bozorda istalgan paytda sotib yuborish mumkin. Demak, bu xildagi qimmatli qog‘ozlarni likvidligi yuqori bo‘ladi. Bozorda muomalada bo‘lmayotgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bank uchun xatar darajasi ancha yuqori bo‘ladi hamda bunday qog‘ozlarni ishonchliligiga emitent ahvolidagi har qanday o‘zgarish ta’sir etadi.

Profesor V.V.Kovalyov «risk» to‘g‘risidagi fikrlarni umumlashtirgan holda, riskka quyidagi ta’rifni berib o‘tadi: qo‘yilgan maqsadga etib bormaslik; noaniqlik holatda natijani belgilash; sub’ektiv holatda belgilangan natijani baholash.

Bozorda muomalada bo‘layotgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha xatar darajasiga emitentning ahvoli bilan bir qatorda boshqa ko‘plab omillar ta’sir etadi. Ularni qimmatli qog‘ozlar bozoridagi xatar darajasi omillari sifatida olib qarash mumkin. Xatar darajasini belgilovchi omillar ayni paytda bankning investitsiyalash obekti sifatida muayyan qimmatli qog‘ozni tanlab olishini belgilovchi omillar hamdir.

Investor sotib olayotgan qimmatli qog‘oz qat’iy belgilangan va kafolatlangan daromadlilik stavkasiga ega bo‘lsa, kutilayotgan daromad darajasi bo‘yicha xatar mavjud bo‘lmaydi. Lekin, daromad darajasi oldindan belgilab va kafolatlab qo‘yilmagan hollarda kutilayotgan daromadlilik bo‘yicha xatar yuzaga keladi. Albatta, kutilayotgan daromadlilik emitentning kelajakdagi

moliyaviy ahvoliga bog‘liq. Biroq, unga boshqa omillar ham ta’sir etishini inkor etish mumkin emas.

Qimmatli qog‘ozlardan keladigan daromadlarning darajasi juda past bo‘lsa, ularni sotib yuborib, bo‘shagan mablag‘larni boshqa yuqori daromadli investitsiyalarga yo‘naltirish mumkin. Qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishda uning turli variantlaridan soliqlar darajasini oldindan aniqlab olish lozim. Ba’zi paytlarda investor qimmatli qog‘ozlarning bir qismini zarar ko‘rgan holda ham sotishi mumkin. Bunda zarar summasi investorning soliqqa tortiladigan daromadini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Ya’ni, haqiqiy zarar summasini soliqning kamayishini ham e’tiborga olib aniqlash zarur. Shu bilan birga bo‘shatilgan mablag‘ni yuqori daromadli investitsiyalarga yo‘naltirish imkoniyati mavjud.

5.-jadval.

***O‘zbekiston Respublikasida pul taklifiga ta’sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy monetar ko‘rsatkichlar (2009-2013 yillar)*¹**

foizda

T\r	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2009	2010	2011	2012	2013
1.	Inflyatsiyaning yillik darajasi	7,4	7,3	7,6	7,0	6,8
2.	Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi	14,0	14,0	12,0	12,0	12,0
3.	Markaziy bank majburiy zaxira stavkalarining o‘rtacha darajasi	12,5	12,5	12,5	12,5	12,5
4.	Davlatning tashqi qarzi (YaIM ga nisbatan foizda)	9,5	8,3	17,5	16,0	17,0
5.	Davlat budjeti taqchilligi (YaIM ga nisbatan foizda)	0,2	0,3	0,4	0,4	0,4

¹Abdullaev U. Pul taklifini tartiblashtirishning nazariy va amaliy jihatlar. // Moliya. -Toshkent. 2014. -№1. – B.62.

Demak, investor kelajakda yuqori foydaga erishish uchun hozirda muayyan miqdordagi zararga ongli ravishda yo‘l qo‘yishi mumkin. Foiz stavkalarining o‘zgarishi bank investitsiyalariga nisbatan xatarni vujudga keltiradi. Bozordagi foiz stavkalarining o‘sishi ilgari emissiyalangan qimmatli qog‘ozlarning bozor bahosini pasaytirib yuboradi. Odatda uzoq muddatli obligatsiyalarning baholari eng katta miqdorda pasayadi, chunki ularda band bo‘lib qolgan mablag‘lar bo‘shatib olinishi eng qiyin kechadi. Shu bilan birga foiz stavkalari ortishi davrida kreditga talab ortadi. Bu birinchi qarashda mantiqqa zid tuyuladi, chunki foiz stavkalari oshirilishi iqtisodiyotning umumiy tez yuksalishi davrlarida yuz beradi. Bu davrda esa kreditga talab muttasil oshib boradi hamda foiz stavkalarining oshirilishi ham unga to‘sqinlik qila olmaydi. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasida pul taklifiga ta’sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy monetar ko‘rsatkichlar berilgan (5.-jadval). Tahlil ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2009-2013 yillarda inflyatsiyaning nisbatan past va barqaror darajasini saqlab turishga erishilgan. Bu esa pul massasining o‘shish sur‘atlari barqarorligini ta’minlash bo‘yicha ijobiy holat hisoblanadi. Tahlil qilingan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi sezilarli darajada, ya’ni 4,0 foiz punktga pasaygan. Bu esa pul massasining multiplikativ kengayishini ta’minlash, tijorat banklarining kredit ekspansiyasini rag‘batlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning bank kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish imkonini beradi.

Qimmatli qog‘ozlar yoki kredit bo‘yicha qaytariladigan summa tovarlar va xizmatlar baholarining o‘sishi, ya’ni inflyatsiya natijasida qadrsizlanishi mumkin. Bu inflyatsiya xatarini tashkil etadi. Inflyatsiya natijasida aksiyadorlarning qo‘yilmalari qiymati, yani qo‘yilmalarning sof bozor qiymati ham qadrsizlanishi mumkin. Inflyatsiya xataridan himoyalaniishning asosiy usuli o‘zgaruvchan foiz stavkalarini qo‘llash, shuningdek qo‘yilmalarni ko‘proq darajada qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirishdir. Bunday hollarda investor inflyatsiya silkinishlariga etarli darajada tez moslashib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

6.-jadval.

Investorlar bilan investitsiya xarakteri o'rtasidagi bog'lanish¹

Investorning sifati	Investitsiya lashning maqsadi	Xatar darajasi	Qimmatli qog'ozning turi	Investitsiya xarakteri
Konservativ (ehtiyotkor)	Investitsiyadan himoyalash	Past	Davlat qimmatli qog'ozlari, yirik, barqaror emitentlarning aksilari va obligatsiyalari	Yuqori ishonchli, lekin past daromadli
Mo'tadil agressiv	Kapitalni uzoq muddatga joylashtirish va uni o'stirish	O'rtacha	Davlat qimmatli qog'ozlari ulishi oz, uzoq bozor tarixiga ega yirik va o'rta emitentlar qimmatli qog'ozlari ulishi katta	Diversifik aksilashgan
Agressiv	Chayqovchilik, qo'yilgan mablag'larni tez ko'paytirib olish	Yuqori	Katta bo'lmagan emitentlarning, venchur kompaniyalarining yuqori daromadli qimmatli qog'ozlari ulishi katta	Xatarli, lekin yuqori daromadli
Nooqilona xarakat qiluvchi	Aniq maqsadlari yo'q	Past	Duch kelgan qimmatli qog'ozlar sotib olingan	Tartibsiz

Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar uchun muayyan xatarlar xos ekanligi investitsion portfelni shakllantirish va boshqarishda ularning e'tiborga olinishini zarur qilib qo'yadi. Qimmatli qog'ozlar portfelini tarkibi xatar bilan daromad o'rtasidagi muayyan nisbat bilan xarakterlanadi. Odatda, daromadligi yuqori qimmatli qog'ozlar uchun xatarning ham yuqori darajasi xos bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibini shakllantirishdagi maqsad alohida olingan qimmatli qog'ozga investitsiyalashda erishib bo'lmaydigan investitsion xususiyatlarga

¹Mamatov B., Azimova L. Qulay investitsion muxit – taraqqiyot omili. // Moliya. Toshkent. 2013. 2-son. – B.72.

ularning kombinatsiyasi orqali erishishdir. O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorida portfel investitsiyalar asosan banklar tomonidan amalga oshirilmoqda. Banklar investitsion faoliyatining eng muhim xususiyati shundaki, ular bunda qarzga olingan mablag'lardan foydalanib ish ko'radilar. Quyidagi jadvalda investorlar bilan investitsiya xarakteri o'rtasidagi bog'lanish ko'rsatilgan (6-jadval).

Bankning daromadi investitsiyalardan olingan daromad bilan kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishdagi xarajatlar o'rtasidagi tafovut sifatida hosil bo'ladi. Shuning uchun investitsiyadan daromad kelib tushishi vaqti bankning qarz mablag'lari bo'yicha xarajatlari to'lab berilishi vaqtiga muvofiq kelishi lozim. Investitsion portfelning tarkibiy tuzilishi investor qanday investitsion siyosatini tanlab olishga bog'liq bo'ladi. Investitsion siyosat strategiyasining maqsadlariga qimmatli qog'ozlarning muayyan turlari turli darajada muvofiq keladi. Shuning uchun investitsion portfelning xarakteri investorning kim ekanligiga, investitsiyalash maqsadlariga, xatar darajasiga, qimmatli qog'ozlar qaysi turlari ustun ravishda tanlab olinishiga qarab belgilanadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tijorat banki o'z investitsion portfelini shakllantirishda bir-biri bilan bog'lanib kelgan quyidagi masalalarni hal etishi zarur:

1. Portfelni qimmatli qog'ozlarning muddatlari va turlari bo'yicha diversifikatsiyalash.
2. Eng yuqori daromadga erishish.
3. Xatarni eng quyi darajasigacha pasaytirish.
4. Pul oqimlari kirimi va chiqimini vaqt oralig'ida o'zaro muvofiqlashtirish.
5. Soliq solinadigan bazani kamaytirish.

Mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash tijorat bankiga o'z aktivlarini diversifikatsiyalashga yordam beradi, ayni paytda bankning umumiy xatari kamayadi va daromadlari ortadi.

II BOB bo'yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida ikkinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Investitsiyalashdan maqsad kapitalni joylashtirish va undan foyda olishdir. Jamg'armalar esa investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Investitsiya vositasida ishlab chiqarish kengaytiriladi, texnik va texnologik jihatdan takomillashtiriladi. Investitsiya tadbirkorlik faoliyatining moddiy-iqtisodiy negizi hisoblanadi.
2. Investitsion faoliyat turlari, xususan, jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga mumkin bo'lgan investitsiya faoliyati turlari bo'yicha shug'ullanish bu - moliyaviy investitsiyalar yo'naltirishdir.
3. Moliyaviy investitsiyalar – ma'lum davr davomida iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida quyilgan pul ko'rinishidagi kapitalni bildiradi. «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BXMS standartida qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalarni foiz, royalti, dividendlar va ijara haqi shaklida daromad olish, investitsiya qilingan kapitalning o'sishi yoki investitsiya qilayotgan tomonidan foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida bo'lgan aktivlar sifatida ta'riflaydi. Moliyaviy investitsiyalarni joriy va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratiladi.
4. Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini talab mavjud joyga tez va samarali etkazishni ta'minlashdir. Demak, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'lari miqdori bilan uzviy bog'liq. Mamlakat iqtisodiyotidagi pul massasini oshirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat ta'sirida milliy qimmatli qog'ozlar bozorini barqaror sur'atlarda rivojlanishiga erishilmoqda.
5. Moliyaviy qo'yilmalarni qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladi. Qimmatli qog'ozlarni ikki guruhga ajratish mumkin: qimmatli qog'ozlar bozorida doimiy muomalada bo'layotgan va doimiy muomalada bo'lmayotgan

qimmatli qog'ozlar. Tijorat banklari asosan bozorda doimiy muomalada bo'layotgan qimmatli qog'ozlar bilan ish olib boradi, ularni istalgan paytda sotib yuborish mumkin. Bu qimmatli qog'ozlarni likvidligi yuqori bo'ladi. Bozorda muomalada bo'lmayotgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha bank uchun xatar darajasi ancha yuqori bo'ladi, bunday qog'ozlarni ishonchliligiga emitent ahvolidagi har qanday o'zgarish ta'sir etadi.

6. Investor sotib olayotgan qimmatli qog'oz kafolatlangan daromadlilik stavkasiga ega bo'lsa, kutilayotgan daromad darajasi bo'yicha xatar mavjud bo'lmaydi. Lekin, daromad darajasi oldindan belgilab va kafolatlab qo'yilmagan hollarda kutilayotgan daromadlilik bo'yicha xatar yuzaga keladi. Albatta, kutilayotgan daromadlilik emitentning kelajakdagi moliyaviy ahvoliga bog'liq.
7. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar uchun muayyan xatarlar xos ekanligi investitsion portfelni shakllantirish va boshqarishda e'tiborga olinishini zarur qilib qo'yadi. Qimmatli qog'ozlar portfelini tarkibi xatar bilan daromad o'rtasidagi muayyan nisbat bilan xarakterlanadi. Odatda, daromadligi yuqori qimmatli qog'ozlar uchun xatarining ham yuqori darajasi xos bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibini shakllantirishdagi maqsad alohida olingan qimmatli qog'ozga investitsiyalashda erishib bo'lmaydigan investitsion xususiyatlarga ularning kombinatsiyasi orqali erishishdir. O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorida portfel investitsiyalar asosan banklar tomonidan amalga oshiriladi. Bankning daromadi investitsiyalardan olingan daromad bilan kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishdagi xarajatlar o'rtasidagi tafovut sifatida hosil bo'ladi.
8. Pensiya jamg'armasiga mumkin bo'lgan investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishda qimmatli qog'ozlar bozoridagi holatni tahlil qilish kerak. Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy o'sish va qimmatli qog'ozlar bozorida erishilayotgan yutuqlarni o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda korrelyatsion tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA PENSIYA FONDLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

1. Pensiya fondlari faoliyatining xorijiy tajribalari

Pensiya ta'minoti tarixiga bir nazar solsak, Germaniyada xususiy sektorda band bo'lganlarning yoshiga ko'ra davlat tomonidan tashkil etilgan birinchi pensiya tizimi 1889 yilda amalga kiritilgan. Mazkur yondoshuvning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy sug'urta majburiy bo'lib, fuqarolar tomonidan badallar kiritishga asoslangan. Yangi tizimda pensiya olish huquqi ilgari to'langan badallarga asoslandi. Daniyada 1891 yilda va Yangi Zelandiyada 1898 yilda kambag'allarga maqsadli yordam ko'rsatishga mo'ljallangan pensiya tizimini joriy etildi. Bu erda u umumiy soliq daromadlari hisobidan moliyalashtirildi, muhtojlikni kamaytirish maqsadida pensiya to'lovlari kafolatlandi. Bu pensiya tizimi ko'p jihatdan kambag'allar to'g'risidagi an'anaviy qonunchilikdan kelib chiqdi. Qadimgi Rimda Yuliy Tsezar tomonidan birinchi marta harbiy pensiyalar joriy etilgan.

“Pensiya” (lotin tilidagi *“pension”* so'zidan olingan bo'lib, tarjima qilinganda “to'lov” ma'nosini anglatadi) so'zi esa birinchi marta XV asrning II yarmida Lyudovik XI davrida Parij Hisob palatasining hujjatlarida qayd etilgan. Har yili Angliya hazinaboni va arboblari uchun to'lab turiladigan to'lovlarni anglatadi. Pensiya dasturlari II jahon urushi davrida, ya'ni ish haqini muzlatib qo'yish sababli ishchilarning pensiya jamg'armasiga ajratma ajratish qiyinlashgan paytda tarqala boshladi.

XX asrda rivojlangan mamlakatlar pensiya tizimlarining asta-sekin yaqinlashuvi yuz berdi. Pensiya tizimi sug'urta badallari to'lashga asoslangan davlatlar (Germaniya) da ilgari to'langan badallarga bog'liq bo'lmagan pensiya eng kam miqdorining kafolatlari belgilandi. Pensiya tizimi umumiy daromadlar, budjetlar hisobidan mablag' bilan ta'minlanadigan teng miqdordagi pensiyalarga qarab mo'ljall oluvchi mamlakatlarda muhtojlikni nazorat qilish bekor qilindi. Eng kam pensiya miqdoriga qo'shimcha ravishda majburiy ijtimoiy sug'urta

tizimi (Buyuk Britaniyada) joriy etildi. Shimoliy Amerikada qarilik bo'yicha davlat pensiya tizimi nisbatan kech tarqalgan. Amerika Qo'shma Shtatlarda muhtojlik mezoniga asoslangan pensiya tizimlari o'tgan asrning 20 yillarida joriy etila boshlandi. AQSh da 1935 yilda pensiya sug'urtasi federal tizimi joriy etildi.

Vatanimiz iqtisodchilaridan G.A.Qosimova, Z.X. Karimovaning "Budjetdan tashkari fondlar" nomli o'quv qo'llanmasida ko'rsatilishicha, xorijiy davlatlarda budjetdan tashqari fondlar yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- korxonalarga kreditlar, subsidiyalar beriladi;
- iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatiladi;
- ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtiriladi;
- pensiyalar, subsidiyalar, nafaqalar va turli xil transfertlarni berish yo'li bilan aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi;
- xorijiy davlatlarga, yuridik shaxslarga, xorijiy hamkorlarga qarzlar beriladi.

Vatanimiz iqtisodchilaridan A.Xaitov A.M.Ziyadullaevning "O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi" nomli o'quv qo'llanmasida O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining rivojlantirish bosqichlari, pensiya ta'minotining nazariy jihatlari, huquqiy-me'yoriy asoslari berilgan. Mualliflar jahon amaliyotida keng e'tirof etilgan G.Esping-Andersen tasnifi bo'yicha davlatning ijtimoiy himoyalash tizimining uch asosiy modeli: liberal, konservativ, sotsial-demokratik modellarini bir-biridan farqlaydilar. «Ijtimoiy himoya» va «ijtimoiy ta'minot»ni inson faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta'minlovchi mehnat, sog'liq va tabiat muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni kamrab olinganligi ko'rsatilgan.

Mualliflar tomonidan xorijiy davlatlarda uch komponentli pensiya ta'minoti tizimini yaratish tahlil kilingan:

1. Qayta taqsimlash elementlarini o'z ichiga oladigan va qariyalar daromadlarini muayyan darajada saqlashni ta'minlash maqsadini ko'zlaydigan birdamlik xususiyatidagi davlat pensiya tizimi.
2. Badallarni kapitalizatsiyalash va ixtiyoriylikni uyg'unlashtirishga asoslangan tizim.
3. Jamg'arish tamoyiliga qurilgan pensiya tizimi.

Taraqqiy etgan davlatlarda XX asrning 90-yillarida pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda asosiy e'tibor amaldagi taqsimlanuvchi pensiya ta'minotini takomillashtirishga, majburiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich joriy etishga qaratildi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida taqsimlanuvchi va jamg'ariladigan pensiya tizimlariga asoslangan ko'p pog'onali tizim amal qiladi. Qator mamlakatlarda taqsimlanuvchi pensiya tizimi takomillashtirildi, unga shartli – jamg'ariladigan schyotlar kiritildi. Shu yo'l bilan individ tomonidan o'tkazilgan pensiya badali va to'lanadigan pensiya miqdori o'rtasidagi uzviy aloqadorlik ta'minlandi.

Pensiya ta'minotining jamg'arish printsiplariga o'tish borasidagi dastlabki tadbirlar Lotin Amerikasi mamlakatlarida amalga oshirildi. Lotin Amerikasi mamlakatlari o'zlarining taqsimlanuvchi pensiya ta'minotini saqlab qolgan holda, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini ko'p pog'onali pensiya tizimini joriy qilish maqsadida qo'llashdi. Bunday davlatlar sifatida Argentina, Kolumbiya, Peru va Urugvayni ko'rsatish mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining barcha qatlamlarini to'liq qamrab olgan universal taqsimlanuvchi pensiya tizimi mavjud. Bundan tashqari, xususiy sektorda shaxsiy sug'urtaga asoslangan ixtiyoriy pensiya ta'minoti mavjud. Islohotlarning dastlabki bosqichida AQSh, Germaniya, Yaponiya va Italiyada pensiya tizimining daromadlarini oshirish maqsadida pensiya badallarini oshirishga harakat qilishdi. Bu esa, ishlovchilar va tadbirkorlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi.

**2013 yilda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda Pensiya
jamg'armalariga to'lovlar stavkasi¹.**

(foizda)

Mamlakatlar	Pensiya fondiga to‘lovlar stavkasi		Jami
	Ishlovchilar tomonidan	Ish beruvchilar tomonidan	
Rivojlangan mamlakatlar			
Avstraliya	0,0	9,0	9,0
Buyuk Britaniya	11,0	12,8	23,8
Germaniya	10,0	10,0	20,0
Ispaniya	4,7	23,6	28,3
Italiya	9,2	23,8	33,0
Kanada	5,0	5,0	10,0
Niderlandiya	19,0	5,7	24,7
Norvegiya	7,8	14,1	21,9
Portugaliya	11,0	23,8	34,8
Frantsiya	6,8	9,9	16,7
Shvetsiya	7,0	11,9	18,9
AQSh	6,2	6,2	12,4
Yaponiya	7,7	7,7	15,4
Rivojlanayotgan mamlakatlar			
Rossiya	0,0	26,0	26,0
Bolgariya	7,1	8,9	16,0
Polsha	11,3	14,3	25,6
Turkiya	9,0	11,0	20,0
Chexiya	6,5	21,5	28,0
Janubiy Koreya	4,5	4,5	9,0

Quyidagi jadvalda 2013 yilda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda Pensiya fondiga to'lovlar stavkasini ko'rib chiqamiz. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eng yuqori Pensiya fondiga eng yuqori to'lovlar stavkasi rivojlangan mamlakatlardan Portugaliya - 34,8 foiz va Italiya 33,0 foizni tashkil etadi.

¹Ageing Report / European Commission. 2013; Social Programs throughout the World / Social Security Administration and International Social Security Association.2013.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tarkibida eng yuqori to'lov stavkalari Chexiyada 28,0 foiz va Rossiya 26,0 foiz kuzatildi (7.-jadval).

Muvaffaqiyatli pensiya ta'minoti islohotlari Buyuk Britaniya va Shvetsiyada amalga oshirildi. Ushbu ikkala mamlakat o'zlarining pensiya tizimlarining sezilarli qismini jamg'arilish printsiplari asosida qayta tashkil qildilar. Buyuk Britaniyada ikki pog'onali pensiya tizimi shakllantirildi. Birinchi pog'ona – pensionerga minimal daromad olishni ta'minlaydigan, umumiy soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiriladigan majburiy davlat sug'urta ta'minoti. Ikkinchi pog'ona – ishlovchining ish haqiga bog'liq bo'lgan pensiya ta'minoti. Bu erda ikkinchi pog'onadagi davlat jamg'aradigan tizimi yoki xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishni har bir ishlovchi xodimning o'zi tanlaydi.

Shunisi xarakterliki, Buyuk Britaniyada ishlovchilarning xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishi davlat tomonidan turli soliq imtiyozlari qo'llash orqali rag'batlantiriladi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, ishlovchilarning qariyb 50% xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etadi. Buning natijasida davlatning pensiya bo'yicha majburiyatlari 30 foizdan ortiq summaga qisqardi. Buyuk Britaniya pensiya bozori Evropadagi eng katta bozor bo'lib, jami pensiya jamg'armalarining 40 foiziga ega. Mehnatga layoqatli 33 mln. angliyalikdan 22 millioni yollanib ishlaydi. Ularning yarmi, ya'ni 10,5 mln. kishi korxonalar tomonidan tashkil etilgan xususiy pensiya sxemalarida ishtirok etadi, 4,5 million kishi individual pensiya schyotlariga pul o'tkazishadi, ishlovchilarning uchdan bir qismi pensiya sxemalarida ishtirok etmaydi.

Buyuk Britaniyada xususiy pensiya fondlariga to'lanadigan yillik badallar miqdori 37 mlrd. funt sterlingni, ularning to'plangan aktivlari 640 mlrd funt sterlingni tashkil etadi. Bunga 15 mlrd. funt sterling miqdoridagi individual pensiya jamg'armalariga o'tkaziladigan badallar qo'shiladi. Pensiya fondi pensiya sxemalarni ishlab chiqadi, badallar va to'lovlarning hisobini olib boradi, o'zinig kelgusida majburiyatlari bo'yicha hisoblashishni tashkil qiladi,

boshqaruvchi kompaniyaga mablagʻlarni qaytarish boʻyicha shartlar qoʻyadi. Pensiya fondining oʻzi investitsiyalash bilan shugʻullanmaydi, balki shartnoma asosida boshqaruvchi kompaniya shugʻullanadi.

Shvetsiyada ishlovchilar va ish beruvchilarning pensiya badallari ish haqiga nisbatan 18,5 foizni tashkil qiladi. Ushbu ajratma ikki qismga ajratiladi:

1. Uning 16,5% joriy yilda taqsimlanuvchi pensiya tizimi asosida toʻlanadigan pensiyalarni moliyalashtirishga sarflanadi. Bunda individual jamgʻarma schyotlari ochiladi va unda ishlovchining pensiya badallari aks etadi. Ammo ushbu mablagʻlar kapitalizatsiya qilinmaydi va shaxsning mulkiga aylanmaydi.

2. Badallarning qolgan 2 % maxsus individual jamgʻarma schyotiga oʻtkaziladi. Ushbu schyotdagi mablagʻlar sugʻurtalangan shaxsning tanloviga koʻra xususiy fondlardan biriga yoki davlat boshqaruvida boʻlgan fondga berilishi mumkin. Xodim pensiyaga chiqishi bilan kapitalashgan jamgʻarmasi qaytarib beriladi. Amalda Shvetsiyada taqsimlanuvchi pensiya tizimi aralash taqsimlanuvchi-jamgʻariluvchi pensiya tizimi bilan almashtirilgan.

Evropa davlatlarida pensiya islohotlari jarayonida shartli jamgʻarma schyotlari yuzaga keldi. U demografik omilning – aholi umri uzayishining va muddatidan oldin pensiyaga chiqishining pensiya tizimiga nisbatan taʼsirini zaiflashtirish imkonini berdi.

Jamgʻariladigan pensiya tizimiga oʻtishni moliyalashtirish uchun turli mamlakatlarda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Taqsimlanuvchi pensiya tizimini qisman saqlab qolish. Chunki toʻplangan ajratmalarni mavjud pensionerlarga toʻlash lozim. Polsha, Vengriya, Shvetsiya, Urugvay va Rossiyada ushbu usudan foydalanildi.
2. Mehnatga haq toʻlash fondidan qilinadigan ajratmalar miqdorini oshirish usuli.
3. Boshqa manbalardan olingan daromadlarni ishlatish usuli. Masalan, Xitoyda lotoreyalarni sotishdan olingan daromaddan, Argentinada qoʻshilgan qiymat soligʻidan foydalanildi.

4. Mahalliy budjetlarnig profitsitidan foydalanish usuli.
5. Davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag'larni joriy pensiya majburiyatlarini moliyalashtirish uchun ishlatish usuli. Peru, Boliviya va Polshada ushbu usuldan foydalanildi.

Taqsimlanuvchi pensiya tizimi ham, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi ham kamchiliklarga va afzalliklarga ega. Pensiya siyosati faqat bir pensiya tizimiga asoslanib qolmasligi kerak. Taraqqiy etgan mamlakatlarda har ikkala tizimdan foydalanishga asoslangan uch pog'onali pensiya tizimi shaklandi:

- majburiy davlat pensiya tizimi. Ushbu tizimining mavjudligi pensionerlar o'rtasida qashshoqlikni oldini olish va qisqartirish imkonini beradi;
- majburiy jamg'ariladigan pensiya tizimi. Ushbu tizimda pensiya miqdori pensionerlarning individual schyotlarida to'plangan mablag'larga va investitsion daromadlarga bog'liq bo'ladi. Mazkur tizim davlat tomonidan markazlashgan tarzda boshqarilishi mumkin yoki xususiy kompaniyalar, fondlar tomonidan boshqariladi;
- ixtiyoriy xususiy pensiyaviy sug'urtalash.

Bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun muomalada "uzun" moliyaviy resurslarning salmog'ining yuqori bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotni strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bevosita "uzun" moliyaviy resurslar hisobiga amalga oshiriladi. Xalqaro amaliyotga nazar tashlasak, muddati jihatidan "uzun" bo'lgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga taklif qilishda nodavlat pensiya jamg'armalarining o'rni nechog'lik yuqori ekanligini guvoh bo'ldik¹. Bizning fikrimizcha, mamlakatimida nodavlat pensiya jamg'armalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish natijasida bu boradagi iqtisodiy islohotlarning ko'lami yanada chuqurlashdi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz bank-

¹Axmedov M. Iqtisodiyotda "uzun" moliyaviy resurslar salmog'ini oshirishda nodavlat pensiya jamg'armasining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2012. №2. – B.132.

moliya tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Iqtisodiyotning strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda yana bir turtki vazifasini bajaradi. Mamlakatimizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari ham muddatiga ko'ra "uzun" moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Chunki ish beruvchi tomonidan xodimga ish haqi hisoblanib, uni to'lash bilan bir vaqtda jamg'arma hisobiga tegishli summa o'tkaziladi. Hozirda jamg'armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi sezilarisiz salmoqqa ega, shu jihatidan ushbu tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg'armalari bilan shug'ullanuvi moliyaviy tashkilotlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Evropa mamlakatlarida xususiy fondlar pensiya fondlarining mablag'larini boshqaruvchi kompaniyalar raqobat asosida boshqarish huquqini qo'lga kiritadilar. Bu esa, pensiya fondlari mablag'larini to'lov qobiliyati darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalar ixtiyoriga berish imkonini yuzaga keltiradi. Boshqaruvchi kompaniyalar mablag'larni ishonchli va daromadli investitsiyalash ob'ektlariga yo'naltiradilar. Pensiya fondlarining mablag'laridan samarali foydalanishlari uchun boshqaruvchi kompaniyalar o'zlarining moliyaviy mablag'lari va mulklari bilan javob beradilar.

Evropaning taraqqiy etgan mamlakatlarida pensiya fondlarining aktivlari katta miqdorda bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, ularda pensiya fondlari faoliyatining yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Ko'p pog'onali pensiya tizimi ijtimoiy risklardan sug'urtalanish imkonini beradi. Buyuk Britaniya va Gollandiyada pensiya fondlarining katta miqdorda aktivlarga ega ekanligi ularning investitsion faoliyatini Evropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda samarali ekanligidan dalolat beradi. Ammo shu bilan birga ayrim Evropa mamlakatlarida pensiya fondlarini nisbatan kichiq miqdordagi aktivlarga ega ekanligi aholi sonini kamligi, xususiy pensiya tizimiga ishlovchilarning sezilarli qismini jalb etilganligi kabi omillar bilan izohlanadi.

2.O‘zbekiston Respublikasida pensiya fondi mablag‘larini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, xonadonlarimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan aziz otaxonlar hamda muhtarama onaxonlarning keksalikda farovon yashashi uchun hukumatimiz tomonidan istiqlol yillarida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish borasida izchil say’-harakatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Istiqlol yillaridagi amalga oshirilgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2005 yil 1 yanvardan boshlab jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi amaliyotga tadbqiq etildi. 2004 yil 2 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi 702-II-sonli Qonuni, 2004 yil 21 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 595-sonli Qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004 yil 2 dekabrda 16-sessiyasida tasdiqlangan ushbu qonunning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasining jamg‘ariladigan pensiya ta’minotiga o‘tish yo‘lidagi dastlabki qadam hisoblanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti (JBPT) fuqarolarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘shimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minlashdir. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimiga ikki xil a‘zo bo‘lish mumkin: majburiy va ixtiyoriy. Faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, majburiy hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklarining a‘zolari, shuningdek boshqa fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda 2005 yil 1 yanvardan boshlab daromad solig'i to'lanishi bilan bir paytning o'zida umumiy hisoblangan oylik maoshining 1 foizi soliqqa o'tkazilgan daromad solig'idan tegishlicha ajratib olinib, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimiga o'tkazib kelinmoqda. «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi munosabati bilan 2005 yil 1 yanvardan respublikamizda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi joriy etilgan bo'lib, mazkur Qonun fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti soxasidaga munosabatlarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida ishtirok etishi huquqiga ega. O'z navbatida, jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraklarida jamg'arilgan mablag'lari saklanishi hamda to'lanishi davlat tomonidan kafolatlangan. Ish beruvchilarning, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'ining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to'lab boradi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi (JBPT) mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi.



5.-rasm. Jamg'ariladigan pensiya tizimida mablag'lar qoldig'i¹.

8.-jadval.

Jamg'ariladigan pensiya tizimida mablag'lar qoldig'i².

(mlrd. co'mda)

Yillar	2006	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Mablag'lar qoldig'i (yil oxirida)	18,9	50,8	99,7	173,4	274,6	404,6	578,9	802,4	1087,0

O'zbekiston pensiya ta'minotining muhim xususiyatlaridan biri – pensionerlarning aholi tarkibida kichiq salmoqqa ega ekanligi hisoblanadi. Bu esa, pensiya tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasi mablag'larini investitsiyalash hajmini oshirish imkoni yuzaga keladi. Statistiq ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat aholisining 58 foizdan ortiq qismi mehnatga layoqatli hisoblanadi. O'zbekistonda pensionerlarning aholi sonidagi ulushi past bo'lishiga qaramasdan, pensionerlarga pensiya to'lash xarajatlari salmog'i boshqa MDH davlatlarinikiga qaraganda yuqori. Mamlakat

¹<http://www.halkbank.uz>

² Jamg'arib boriladigan pensiya jamgarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarida mehnat haqining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda. Bu esa, jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga to'ladigan badallar miqdorining oshishiga olib keladi (8.-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga 2006 yilda 18,9 mlrd. so'm mablag' tushgan bo'lsa, 2013 yilda mablag'lar miqdori 1087,0 mlrd. so'mga etdi.

O'zbekiston Respublikasida Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimi hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari;
- jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'lar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

«Davlat-tijorat Xalq banki ma'lumotlariga ko'ra, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, fermer xo'jaliklari va yuridik shaxslar tashkil etgan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya badallarini Xalq bankida ochilgan 5866,7 ming nafar fuqarolarning hisobvaraqlariga o'tkazilishi ustidan kunlik monitoring o'rnatilgan. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lari qoldig'i 160,5 mlrd. so'mni tashkil etadi. Ushbu mablag'larning 158,5 mlrd.so'mi banklararo depozitlarga va 2,0 mlrd. so'mi O'zbekiston Temir yo'llari aktsiyadorlik kompaniyasiga kredit tarzida joylashtirilgan. Shuningdek, tizimga ixtiyoriy a'zo bo'lgan 145,6 mingdan ortiq ishtirokchilarga ham ular tomonidan kirim qilib kelinayotgan badallarning

hisobvaraqlariga muntazam hisobga kiritilishi ta'minlanib kelinmoqda»¹. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish hamda ularni yuritish tartibiga rioya etilishi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi organlari, davlat soliq xizmati organlari va Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallaridan, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larga hisoblab chiqarilgan foizlardan hamda bunday mablag'lar foydalanilishidan fuqarolar va Xalq banki oladigan boshqa daromadlardan, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlaridan, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari aylanmasidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar olinmaydi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to'lovlari oluvchi sifatida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega. Fuqaro vafot etgan taqdirda, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda merosga o'tadi va merosxo'rga bir yo'la to'la hajmda to'lanadi. Fuqaro O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash joyiga chiqib ketayotgan bo'lsa, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan mablag'lar bir yo'la to'la hajmda to'lanadi. To'lovlarni oluvchilar o'zlari mustaqil ravishda belgilaydigan muddat mobaynida har oylik jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olishni yoki jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini bir yo'la olishni tanlash huquqiga ega. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini to'lash quyidagi hollarda tugatiladi:

- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan mablag'lar batamom tugaganda;

¹<http://www.halkbank.uz>

- bunday to'lovlarni oluvchi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan jami summani merosga o'tkazish maqsadida to'lovlarni olishdan yozma ravishda notarial tasdiqlangan tartibda voz kechganda;
- davlat pensiyasini olish huquqini yo'qotganda.

Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilangan. Jamg'ariladigan pensiya jamg'armasiga tushumlarning daromad solig'ining pasayish hisobiga ko'payishi Davlat budjeti daromadlarini ma'lum miqdorda kamayishiga olib kelishi mumkin.

9-jadval.
Jamg'ariladigan pensiya tizimidagi mablag'larga foizlar to'lash¹.
(foizda)

Yillar	Majburiy	Ixtiyoriy
2005	10	10
2006	10	10
2007	10	10
2008	10	10
2009	9	9
2010	8	8
2011	8	24
2012	8	24
2013	7	24

Aksincha, jamg'ariladigan pensiya ta'minotiga tushumlarning ko'payishi daromad solig'ining pasayishi hisobiga yuz bermasa, u holda, ajratmalarni taqsimlanuvchi va jamg'arib boriladigan tizimlar o'rtasida qayta taqsimlashni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy kiritilgan badallariga inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan miqdorda daromadlar qo'shib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010

¹O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda 1438-sonli Qarori.

yil 26 noyabrda 1438-son Qaroriga ko'ra, ixtiyoriy kiritilgan mablag'larga 2011 yildan boshlab Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 2 baravari miqdorida daromadlar qo'shib kelinmoqda (9.-jadval).

Fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlari Konstitutsiya bilan kafolatlanib, bu masala uning 39-moddasida aks ettirildi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi huquqiy asosini shakllantirish "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinishi bilan boshlandi. "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi "Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom", "Fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom, "Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag' to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom va "Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi.

3.O'zbekiston Respublikasida pensiya fondi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish istiqbollari

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 iyundagi «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 110-sonli Qarori qabul qilindi.Ushbu Qarorda jamg'arib boriladigan pensiya badallarining

to'lik hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazilishi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini afzalliklari to'g'risida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, ushbu tizim barqaror ishlashi uchun Xalq bankini bosqichma - bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi hamda dasturlari bilan ta'minlash tadbirlarini amalga oshirishni belgilab berildi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktyabrdagi 88- son va 282-v son Qarorlari bilan «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan moliyaviya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi. JBPT mablag'lari quyidagi ob'ektlarga joylashtirilishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlariga:
- ipoteka obligatsiyalariga:
- amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o'tgan korporativ qimmatli qog'ozlarga:
- banklardagi milliy va chet el valyutasidagi muddatli depozitlarga:
- qonunchilikda belgilangan, muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan har bir holat uchun alohida tasdiqlangan va Nizomning 27 - bandi talablariga javob beradigan boshqa ob'ektlarga.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi (JBPT) mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo'yicha Muvofiqlashtirish Kengashi tashkil etildi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash vazifalari quyidagilardan iborat:

- muddatlilik, qaytarishlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalash tamoyillari asosida JBPT mablag'larini joylashtirish ob'ektlarini belgilash:

- JBPT mablag‘larining xar bir joylashtirish ob‘ektiga joylashtiriladigan eng ko‘p hajmini aniqlash;
- JBPT mablag‘larini joylashtirish ob‘ektlarini risklar bo‘yicha guruhlariga ajratish;
- JBPT mablag‘larini joylashtirish va investitsiya kilishdan olingan daromaddan Xalq banki oladigan marja miqdorini belgilash va fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga hisoblanadigan foiz stavkasini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshkaruvining qo‘shma karoriga asosan “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini samarali joylashtirishni tashkil etish, Xalk bankining JBPT mablag‘larini joylashtirish bo‘yicha majburiyatlari, Xalk bankida JBPT mablag‘larini hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari, JBPT mablag‘larini joylashtirish, JBPT mablag‘larini joylashtirish ob‘ektlariga ko‘yiladigan talablar, JBPT mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan mablag‘larini taqsimlash qoidalarini o‘z ifodasini topgan. Nizom O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Konunga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, jumladan moliya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab beradi.

Mazkur Nizomga asosan, Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari va mablag‘larni joylashtirish tushunchalari quyidagicha izohlab berilgan:

- Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari – Xalk bankdagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamlanadigan mablag‘lar yig‘indisi;
- mablag‘larni joylashtirish – Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirishda foydalanish.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi majburiyatlarini joylashtirish tartibini ko'rib chiqamiz:

- Jamg'arib boriladigan pensiya badallari shaklida o'tkazilgan mablag'lar Xalk banki filiali tomonidan maxsus tranzit hisob rakamida xisobga olinadi va keyinchalik Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan 22628 - «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqdagi mablag'lar» balans hisob raqamida jamlanib boriladi;
- Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan jamlangan JBPT mablag'larining umumiy summasiga hamda kalendar yil davomida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarining mo'ljallangan hajmidan kelib chiqqan holda joylashtirish uchun yo'naltiriladigan bo'sh mablag'lar hajmi belgilanadi;
- Xalk banki filiallarida maxsus hisobvaraklardagi JBPT mablag'lari qoldig'i jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan bir oy davomida amalga oshirish uchun zarur bo'lgan to'lovlar summasidan kam bo'lmasligi lozim;
- JBPT mablag'larini joylashtirish Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan tasdiqlangan kvotalarga muvofiq Xalk banki tomonidan amalga oshiriladi;
- JBPT mablag'larini ob'ektlari bo'yicha joylashtirish kvotalari har chorakda Muvofiqlashtiruvchi Kengash qarorlari bilan tasdiqlanadi;

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsion yo'nalishida foydalanishda mavjud bo'lgan risklarni kamaytirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- kredit tashkilotining faoliyat olib borish bo'yicha lozim bo'lgan kasbiy tajribaga egaligi;
- aktivlarning minimal miqdori, tarkibi va strukturasi bilan bog'liq bo'lgan kasbiy faoliyatning amalga oshirish tajribasiga ega ekanligi;
- kredit tashkilotining yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektni xususiy kapitalining minimal miqdori;

- korporativ qimmatli qog'ozlar emitentlarning rentabelliligi, moliyaviy barqarorligi, ish yuritish va bozordagi faolligi hamda amaldagi qonunchilik va Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan belgilangan boshqa talablar;

Nizomda nazarda tutilgan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisoblanadigan boshqa ob'ektlarga joylashtirishda ularning moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi to'g'risidagi tasdiqlangan auditorlik xulosasi, soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisoboti, Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish to'g'risidagi ariza berishdan oldingi uch yil uchun foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni xamda JBPT mablag'larini joylashtirish masalasini batafsil ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromadlarini taqsimlash Nizom bo'yicha quyidagicha amalga oshiriladi:

- ✓ Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromad Xalq banki oladigan marja summasi chegirib tashlangandan so'ng, har yili yil yakunida fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, ulardagi mavjud bo'lgan qoldiq miqdoriga mutanosib ravishda o'tkaziladi;
- ✓ Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromad, Xalq banki marjasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan Muvofiqlashtiruvchi Kengash tavsiyasiga asosan dastlab – avans qismi yil boshida 1 fevralgacha, uzil kesil – dekabrning oxirgi 10 kunligida belgilanadi;
- ✓ Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olinadigan marjani, Xalk banki va filiallari orasida taqsimlash tartibi Xalk banki tomonidan belgilanadi.

Pensiya fondining investitsion siyosati xatarning eng past darajasida eng yuqori daromad olishga qaratilishi zarur. Kutilayotgan daromadni ololmaslik xatarini ikki qismga ajratish mumkin: bozor xatari, bunda daromadning

o'zgarishlari barcha qimmatli qog'ozlarning daromadlilikiga bir paytning o'zida ta'sir etuvchi iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqadi; o'ziga xos xatar, bunda daromadning o'zgarishi, muayyan kompaniyagagina taalluqli bo'lgan hodisalardan kelib chiqadi.

Qayd etilganidek, qimmatli qog'ozlarning xarakterli xususiyati shundaki, daromad qanchalik yuqori bo'lsa, xatar shunchalik yuqori bo'ladi, eng yuqori daromadga erishish uchun bank o'z portfel investitsiyalarga qimmatli qog'ozlarni har xil turlarini kiritadi; xatar darajasi past va barqaror daromadli davlat obligatsiyalari; aktsiyalar; depozit sertifikatlari, veksellar; hosilaviy qimmatli qog'ozlar (fyucherslar, opsiyonlar).

Tijorat banklari mutaxasislari ularning o'zaro nisbati taxminan quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar: 50 % - davlat obligatsiyalari; 25 % - banklarning depozit sertifikatlari; 10 % - aktsiyalar; 10 % - veksellar; 5 % - fyucherslar, aktsionlar.

Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash uchun pensiya fondi pul mablag'lari rezervlarini vujudga keltiradi. Bu mablag'lar uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga, qisqa muddatli operatsiyalarga ham yo'naltirilishi mumkin. Investitsiyalar uchun mo'ljallangan mablag'larni qanday yo'naltirilishi investitsiya siyosatidagi ustuvor maqsadga bog'liq.

10.-jadval.

O'zbekiston moliya bozoridagi portfel investitsiyalarga muvofiq investitsiyalar yo'nalishlarini taqsimlash mezonlari¹

Investitsion portfelning maqsadi	Aktsiyalar %	Obliga-tsiyalar %	Pul rezervlar i, %
Kapitalni asrab qolish	10	55	35
Joriy daromadlilikka erishish	30	60	10
Uzoq muddatli o'sish	70	25	5
Daromadlilikni oshirish va istiqbollarni ta'minlash	40	50	10
Chayqovchilik	50	35	15

¹ Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: “TDIU”. 2010. –B.78.

Xatarning eng past darajasini ta'minlangan holda eng yuqori daromadga erishish murakkab vazifadir, uni hal etishda investor o'z investitsion portfelini har kuni qayta ko'rib chiqishi va zarur o'zgarishlarni kiritishi lozim. Buning uchun qimmatli qog'ozlar bozori holatini, iqtisodiy konyunkturani va mamlakatdagi hamda jahondagi siyosiy vaziyatni uzluksiz tahlil etib borish talab qilinadi 10.-jadval).

Iktisodchilardan E. Smirnova riskni yuzaga kelishini quyidagicha ta'riflab o'tadi: risk – bu dinamik holatda paydo bo'lib, u doim harakatda va rivojlanishda bo'ladi. Bunday rivojlanishni “risk mexanizmi” deb ataladi, mazkur mexanizm riskni o'zgarishini va vaqtini belgilab beradi. Demak, Pensiya fondi o'z investitsion siyosatini ishlab chiqishi va pensiya tizimini takomillashtirib borishi talab etiladi. Bu siyosat Fuqarolik kodeksiga, Budget kodeksiga, «Investitsion faoliyat to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining mexanizmi to'g'risida» qonunlarga, shuningdek investorlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlarga asoslanadi.

Pensiya fondining investitsion siyosati fond faoliyati barqarorligini ta'minlash, operatsiyalaridan foydani ko'paytirish, xatar darajasini pasaytirish, fond balansi likvidligini ta'minlab turish maqsadlarida fondning portfel investitsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratiladi. Investitsion siyosat pul mablag'larini fondning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga safarbar etadi. Pensiya fondi faoliyatidagi xatar darajasini minimallashtirishda pul mablag'lari kelib tushishi va mablag'lar sarflanishini vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir. Davriy ravishda, to'lovlarni bajarishi muddatlari etib kelganda fond pul mablag'larining bir qismini portfel investitsiyadan bo'shatib oladi. Bu maqsadda fond investitsiyalarni ham, jalb etilgan mablag'larni ham vaqti va hajmi bo'yicha diversifikatsiyalaydi. Masalan, fond resurslari muddatlariga mos ravishda, portfelni ham mablag'larni shu muddatlarda daromadlarini boy bermasdan portfeldan bo'shatib olishni rejalashtirib shakllantirishi lozim. Soliqqa

tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida Pensiya fondi bo'sh pul mablag'larini turli moliyaviy dastaklarga joylashtiradi. Bu dastaklar orasida soliqqa tortilmaydiganlari ham bo'ladi, masalan, davlat obligatsiyalari.

Qimmatli qog'ozlardan daromadlar qanchalik darajada maqbul ekanligini aniqlash uchun Pensiya fondi ularni boshqa qo'yilmalar bilan taqqoslaydi. Daromadlilik qo'yilgan mablag'lar bir yilga aylantirib hisoblanganda qancha foiz foyda keltirayotganligini bildiradi. Turli moliyaviy dastaklarga qo'yilmalardan sof daromadni taqqoslash natijasida daromadlilik nuqtai nazaridan eng afzal moliyaviy dastaklarni aniqlash mumkin. Hozirgi paytda mamlakatimiz iqtisodiyotining moliyaviy mablag'lari pensiya fondi ixtiyorida ham to'plangan. Bu mablag'lardan xatarning minimal darajasida maksimal foyda olib foydalanishni ta'minlanishi zarur. Xatarni pasaytirishning eng ta'sirchan omili esa aktivlarni iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalashdir.

III BOB bo'yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida uchinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Pensiya fondining investitsion siyosati fond faoliyati barqarorligini ta'minlash, operatsiyalaridan foydani ko'paytirish, xatar darajasini pasaytirish, fond balansi likvidligini ta'minlab turish maqsadlarida fondning portfel investitsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratiladi. Investitsion siyosat pul mablag'larini fondning moliyaviy ehtyojlarini qondirishga safarbar etadi. Pensiya fondi faoliyatidagi xatar darajasini minimallashtirishda pul mablag'lari kelib tushishi va mablag'lar sarflanishini vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir. Davriy ravishda, to'lovlarni bajarishi muddatlari etib kelganda fond pul mablag'larining bir qismini portfel investitsiyadan bo'shatib oladi.
2. Moliyaviy investitsiyalar joriy va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratiladi. Joriy investitsiyalar – erkin sotiladigan va bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda egalik qilishga qaratilgan qimmatli qog'ozlardir. Joriy investitsiyalar ulushli va qarz qimmatli qog'ozlari bilan aks ettiriladi. Joriy

investitsiyalar ulushli va qarz qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Uzoq muddatli investitsiyalar – bir yildan uzoqroq bo'lgan muddatga egalik qilishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga ko'yilgan investitsiyalardir. Mamlakatimizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari ham muddatiga ko'ra uzoq muddatli moliyaviy resurslar sifatida qaraladi.

3. Bizning fikrimizcha, mamlakatimida nodavlat pensiya jamg'armalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish natijasida bu boradagi iqtisodiy islohotlarning ko'lemi yanada chuqurlashdi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz bank-moliya tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Iqtisodiyotning strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda yana bir turtki vazifasini bajaradi.
4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorining dastlab kam darajada (oylik ish haqining bir foizi miqdorida) belgilanishi va kelgusida uning miqdorini Hukumat qarorlari bilan oshirib borilishi imkoniyatidan kelib chiqib, investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirishni ko'paytirish uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorini hozirgi sharoitda oylik ish haqidan 2 foiz miqdorida belgilash taklif etiladi. Davlat va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari summolari o'rtasidagi farqni qisqartirish, fuqarolarni pensiya ta'minoti-uni jamg'armaga to'lagan badallariga bog'liqligini oshirish uchun keyinchalik xodimlarni ish haqisidan undiriladigan badal foizlarini oshirib borish lozim deb hisoblaymiz.
5. Mamlakatni ko'p darajali pensiya tizimiga o'tishiga qarab jamg'arib boriladigan pensiya tizimini boshqarish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, hisob-kitoblarni boshqarish, badallarni yig'ish va pensiya to'lovlarini amalga oshirilishi bo'yicha davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida pensiya fondining investitsion faoliyatini rivojlantirish masalalari o'rganildi, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar va takliflar tayyorlandi

Xulosalar.

1. Investitsiyalashdan maqsad kapitalni joylashtirish va undan foyda olishdir. Jamg'armalar esa investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Investitsiya vositasida ishlab chiqarish kengaytiriladi, texnik va texnologik jihatdan takomillashtiriladi. Investitsiya tadbirkorlik faoliyatining moddiy-iqtisodiy negizi hisoblanadi. Investitsion faoliyat turlari, xususan, jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga mumkin bo'lgan investitsiya faoliyati turlari bo'yicha shug'ullanish - moliyaviy investitsiyalar yo'naltirishdir.

2. Davlatning investitsiya siyosatida ikki xil natijaviy yo'nalish mavjud: birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning moddiy asosini tashkil qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ikkinchisi, jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy sohalarga mablag' sarflash kerak. Davlat muhim maqsadlarni ko'zlab investitsiya faoliyatini olib borishga harakat qiladi. Iqtisodiyotida investorlarning qatorida etakchi va asosiy rolni davlat organlari egallaydi. Moliya - kredit institutlari kengayadi, shuningdek aholining jamg'armalari yig'iladi. Investorlar ichida Pensiya jamg'armasi ham munosib o'rin egallashi zarurligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

3. Moliyaviy investitsiyalar joriy va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratiladi. Joriy investitsiyalar – erkin sotiladigan va bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda egalik qilishga qaratilgan qimmatli qog'ozlardir. Joriy investitsiyalar ulushli va qarz qimmatli qog'ozlari bilan aks ettiriladi. Uzoq muddatli investitsiyalar – bir yildan uzoqroq bo'lgan muddatga egalik qilishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga ko'yilgan investitsiyalardir. Mamlakatimizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari ham muddatiga ko'ra uzoq muddatli moliyaviy resurslar sifatida qoraladi.

6. Pensiya fondining investitsion siyosati fond faoliyati barqarorligini ta'minlash, operatsiyalaridan foydani ko'paytirish, xatar darajasini pasaytirish maqsadlarida fondning portfel investitsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratiladi. Investitsion siyosat pul mablag'larini fondning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga safarbar etadi. Pensiya fondi faoliyatidagi xatar darajasini minimallashtirishda pul mablag'lari kelib tushishi va mablag'lar sarflanishini vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir. Davriy ravishda, to'lovlarni bajarishi muddatlari etib kelganda fond pul mablag'larining bir qismini portfel investitsiyadan bo'shatib oladi.

7. Moliyaviy investitsiyalar – ma'lum davr davomida iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida qo'yilgan pul ko'rinishidagi kapitalni bildiradi. «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BXMS standartida qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalarni foiz, royalti, dividendlar va ijara haqi shaklida daromad olish, investitsiya qilingan kapitalning o'sishi yoki investitsiya qilayotgan shaxs tomonidan foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida bo'lgan aktivlar sifatida ta'riflaydi. Moliyaviy investitsiyalarni joriy va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratiladi.

8. Bizning fikrimizcha, mamlakatimida nodavlat pensiya jamg'armalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish natijasida iqtisodiy islohotlarning ko'lemi yanada chuqurlashdi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz bank-moliya tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda yana bir manba vazifasini bajaradi.

9. Iqtisodiyotda davlat investitsiyalari va xususiy investitsiyalar har biri o'ziga xos muammolarni hal etadi. Ularning yo'nalishlari, tashkil etilishi va boshqarish tartibi farq qiladi. Xususiy investitsiya mulkdorning o'z mablag'lari hisobiga va jalb etilgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi. Xususiy investitsiyalash jarayonini tadbirkor yoki moliyaviy menejer boshqaradi. Davlat investitsiyasini asosiy tashkil etish manbalari budjet mablag'lari va uzoq muddatli kredit hisoblanadi. Davlat investitsiyalari fondlarni tuzish orqali ham amalga

oshiriladi. Bu fondlar uzoq muddatli qo'yilmalarni moliyalashtirishga, iste'mol fondi va jamg'armaga yo'naltiriladi.

Takliflar.

1. Mamlakatda jamg'arib boriladigan pensiya tizimini boshqarish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, hisob-kitoblarni olib borish, badallarni yig'ish va pensiya to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.
2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti uchun xodimlardan undiriladigan badalni oylik ish haqining bir foizi miqdorida belgilanishi va kelgusida uning miqdorini oshirib borish imkoniyatidan kelib chiqib, investitsiya va kredit resurslari sifatida, moliyaviy vositalarga joylashtirishni ko'paytirish uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorini oylik ish haqidan 2 foiz miqdorida belgilash taklif etiladi. Davlat va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari summalari o'rtasidagi farqni qisqartirish, fuqarolarni jamg'armaga to'lagan badallariga bog'liqligini oshirish uchun ish haqidan undiriladigan badal foizini ko'tarish lozim deb hisoblaymiz.
3. Fikrimizcha, pensiya jamg'armasiga mumkin bo'lgan investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishda qimmatli qog'ozlar bozoridagi holatni tahlil qilish kerak. Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy o'sish va qimmatli qog'ozlar bozorida erishilayotgan yutuqlarni o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda korrelyatsion tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.
4. Bizning fikrimizcha, Pensiya jamg'armasining moliyaviy faoliyatini investitsiyalash ko'rinishida takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.
5. Pensiya fondi moliya bozorida investor sifatida qatnashish mumkin. Fond pensiya ta'minoti tizimidagi mablag'lari bank depozitlari, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilishi mumkin, ammo bu jarayonda Pensiya fondi mablag'lari aholini mablag'laridan to'planganligi tufayli moliya bozorida mavjud risklarga e'tiborni qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston". 2013. -40 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2007 yil. 25 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat. 1996 yil. - 557b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 1998 yil. 24 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
7. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 2004 yil. 2 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
8. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Q onuni. 2010 yil. 26 noyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
9. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish kiritish haqida»gi Qonuni. 2012 yil. 5 yanvar. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

II.O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari,Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 iyundagi «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 110-sonli Qarori.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda gi «O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 1887-son Qarori.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 dekabrda gi “O‘zbekiston Respublikasi 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2099 son qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevralda gi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida gi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-son Qarori.
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrda gi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjat-larni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-son Qarori.
- 15.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq Qo‘mitasining 2009 yil 5 fevralda gi Qarori. “Yagona ijtimoiy to‘lovning bazaviy miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimovning asarlari.

16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.-T.: «O‘zbekiston». 2009.-56 b.
- 17.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O‘zbekiston”. 2010. -80 b.

- 18.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: “O‘zbekiston”. 2011. - 48 b.
- 19.Karimov I.A. “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, xayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir.”\ Xalq so‘zi. 2012 yil. 8 dekabr.
- 20.Karimov I. A.“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston”. 2012. -36 b.
- 21.Karimov I. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.
- 22.Karimov I. “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi \ 2013 yil. 8 dekabr.
- 23.Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

VI. Asosiy adabiyotlar.

- 24.Adam Smith. An Inquiri in to the Nature and Causes of the Weat the of Nations, New York, Random Hose. 1937. –R.326.

- 25.Vohobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. -T.: «Sharq». 2003. 320 b.
- 26.Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU. 2010. 215b.,
- 27.Karchevskiy V.V., Androsova L.D., Okuneva L.P., Smirnova E.E. Tselevie budjetnie i vnebudjetnie fondi. Uchebnoe posobie. – M.: “Vuzovskiy uchebnik”. 2011. -224 s.
- 28.Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. - T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.
- 29.Xaitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.
- 30.G‘ozibekov D.G’. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. – Monografiya. -T.: “ Moliya”. 2003. -279 b.
- 31.Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 212 b.

V Qo‘shimcha adabiyotlar

- 32.Malikov T.S., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 660 b.
- 33.Kadomtseva S.V. Gosudarstvennie finansi. Uchebnoe posobie.- M.: «INFRA -M». 2010. -352 s.
- 34.Mexmonov. S.U. Budjet hisobi. O‘kuv ko‘llanma. - T.: “Fan va texnologiya”. 2012. - 352 s.
- 35.Neshchitoy A.S. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya "Dashkov i K". 2012. - 336 s
- 36.Polyak G.B. Byudjetnaya sistema Rossii. Uchebnik.- M.: «YuNITI-DANA». 2011. -703 s.
- 37.Smirnova E.. Proizvodstvenniy risk: sushchnost i upravlenie. Monografiya. -Moskva.: 2012.128 s.

- 38.Qosimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2012. 260 b.
- 39.Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2013. - 487 b.

VI Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar.

40. Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. – B.8-12.
- 41.Abdullaev U. Pul taklifini tartiblashtirishning nazariy va amaliy jihatlar. // Moliya. -Toshkent. 2014. -№1. – B.60-65.
- 42.Axmedov M. Iqtisodiyotda “uzun” moliyaviy resurslar salmog‘ini oshirishda nodavlat pensiya jamg‘armasining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2012. №2. – B.132.
- 43.Asqarov N. Sohalarni rivojlantirishda maqsadli boshqarishning metodologik asoslari.\\ Iqtisod va moliya. – Toshkent. 2013. №4. – B.123-127.
- 44.Ageing Report / European Commission. 2013; Social Programs throughout the World / Social Security Administration and International Social Security Association.2013.
- 45.Akramov X.M. O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta’siri: i.f.n... dis. avtoref. -T.: BMA. 2010. 25 b.
- 46.Alimova G. Ijtimoiy sug‘urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6. – B.10-12.
- 47.Vaxabov D.R. Jahon pensiya tizimining asosiy yo‘nalishlari // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyatni investitsiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislar to‘plami.– Toshkent, 2010. – B. 241-244.
- 48.Mamatov B., Azimova L. Qulay investitsion muxit –taraqqiyot omili. // Moliya. Toshkent. 2013. 2-son. 70-73b.

- 49.Sodiqova Sh. Keksalarning jamiyatda tutgan o'ri. // Jamiyat va boshqaruv. -Toshkent. 2012. -№1. – B. 52-54.
- 50.Rustamov E. Otsenka urovnya jizni naseleniya. // Iqtisodiyot va ta'lim. - Toshkent. 2011. -№2. – B. 9-12.
- 51.Nurumbetov R.K. Mintaqalarda pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish masalalari. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning hududiy muvozanatligini ta'minlash masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislar to'plami. Toshkent. Toshkent Moliya instituti. 2012 yil. 17may. –B.366-369.
- 52.Temirov M. Davlat moliyasi: yangi texnologiyalar va ularni moliyalashtirish.\\ Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. №6. – B.19-22.
- 53.Xaydarov M. Davlat budjetining asosiy parametrlari obod turmush yilini ta'minlash omili sifatida. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№1. – B. 6-9.
- 54.Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iktisod va moliya. -Toshkent. 2012. -№12. – B. 51-56.
- 55.Sharopova M. Ijtimoiy soha xarajatlari samaradorligini oshirishda budjetdan moliyalashtirish tamoyillarining ahamiyati. // Moliya. - Toshkent. 2013. №1. – B. 32-35.
- 56.O'rozov U. O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi: mohiyati, ahamiyati va afzalliklari. \\ Moliya. -Toshkent. 2014. №1. –B.24-29.
- 57.Qosimova G.A. Aripov K. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida xorijiy tajribalardan foydalanish. \\ Biznes-Ekspert. 2013. 9-son. 50-52b.
- 58.Qosimova G.A. Pensiya ta'minotida ijtimoiy risklarni kamaytirish masalalari. \\ Moliya. 2013. 3-son. 108-112b.
- 59.Qosimova G.A. Milliy iqtisodiyotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb

- qilishni faollashtirish. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. -Toshkent. 2013 yil. 15 noyabr.135-137 b.
- 60.Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarishda Budjet Kodeksining ahamiyati. \ Moliya. . -Toshkent. 2014. №1. –B.19-23.
- 61.Qosimova G.A. Davlat budjetini boshqarish islohotlarida g'aznachilikning o'rni. Agrar sohani boshqarishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 26 aprel.148-150 b.
- 62.Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion foyiatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2003. –B.14-15.
- 63.World Popjlation Ageing 1950-2050. NY.2002. -239 r.
- 64.O'zbekiston Respublikasini 2013 yilning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida. \ -T.: Ma'rifat. 2013. 1 may. 35 (8580)-son.

VII. Internet-saytlari

- www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
- www.treasury.uz Kaznacheystvo Ministerstva Finansov Respubliki Uzbekistan.
- www.gov.uz O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali.
- www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- www.stat.uz O'zbekiston respublikasi Davlat Statistikasi Qo'mitasi.
- <http://www.soliq.uz/uz> O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq Qo'mitasi.
- <http://www.halkbank.uz>
- <http://hdr.undp.org> Development Human Report 2012.